

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL ETISH BOSH ILMIY -  
METODIK MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ  
MARKAZI**

**Avtomobilsozlik va traktorsozlik  
YO'NALISHI**

**“Avtomobillar va traktorlarni avtomatik loyihalash tizimlari”**

**moduli bo'yicha  
O'QUV –USLUBIY M A J M U A**

**Toshkent - 2018**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRALARINI  
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISHNI TASHKIL ETISH BOSH  
ILMIY - METODIK MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
PEDAGOG KADRALARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ  
MARKAZI**

**“Avtomobillar va traktorlarni avtomatik loyihalash tizimlari”  
moduli bo'yicha**

**O'QUV –USLUBIY M A J M U A**

**Tuzuvchi: katta o'qituvchi. N.B.Abduraxmanov**

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2018 yil -sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

**Tuzuvchi:** TDTU, “Erusti transport tizimlari” kafedrasи katta o‘qituvchisi N.B.Abduraxmanov

**Taqrizchi:** TDTU, “Erusti transport tizimlari” kafedrasи mudiri t.f.n., dos. Sh.Ravutov

O‘quv-uclubiy majmua Toshkent davlat texnika universiteti Kengashining 2018 yil \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_-sonli qarori bilan nashrga tavsiy qilingan.

## **MUNDARIJA**

<u>I. ISHCHI DASTUR</u> .....	3
<u>II. Modulni o'qitishda foydalaniladigan intrefaol ta'lif metodlari.</u> .....	14
<u>III. Nazariy mashg'ulot materiallari</u> .....	27
<u>IV. Amaliy mashg'ulot materiallari</u> .....	93
<u>V. Keyslar banki</u> .....	110
<u>VI. Mustaqil ta'lif mavzulari</u> .....	111
<u>VII. Glossariy</u> .....	112
<u>VIII. Adabiyotlar ro'yihati</u> .....	117
<u>IX. Ilova</u> .....	118

## I. ISHCHI DASTUR

### Kirish

Dastur O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi "Oliy ta'lif muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-4732-son Farmonidagi ustuvor yo'nalishlar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u zamonaviy talablar asosida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda oliy ta'lif muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi. Dastur mazmuni oliy ta'lifning normativ-huquqiy asoslari va qonunchilik normalari, ilg'or ta'lif texnologiyalari va pedagogik mahorat, ta'lif jarayonlarida axborot-kommunikasiya texnologiyalarini qo'llash, amaliy xorijiy til, tizimli tahlil va qaror qabul qilish asoslari, maxsus fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, texnologik taraqqiyot va o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo'yicha so'nggi yutuqlar, pedagogning kasbiy kompetentligi va kreativligi, global Internet tarmog'i, multimedia tizimlari va masofadan o'qitish usullarini o'zlashtirish bo'yicha yangi bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Ushbu dasturda avtomobilsozlik va traktorsozlik sohasi ishlab-chiqarishda zamonaviy loyihalash usullari va dasturlarini qo'llashni talab qiladi. Shu sababli traktorlar, avtomobillar va qishloq xo'jalik mashinalarini loyihalashda avtomatik loyihalash (CAD,CAM,CAE) masalalari muhim o'rinn tutadi. Xozirgi kunda malakali mutaxassislar bilimini namoyish qila olishda komp'yuterda loyihalash ko'nikmalari, SAD,CAM,CAE dasturlarida ishlash qobiliyati asosiy o'rinn tutadi. Mutaxassislarning raqobatga bardoshlik darajasi shu orqali ishlab – chiqarishda asosiy o'rinda bo'lganligi sababli muhim o'rinn tutadi.

SAD,CAM,CAE dasturlarida ishlay olishi malakali mutaxassislarnig bugungi kun talabidir. Chunki avtomatik loyihalash tizimi xar kanday loyixalash jarayonini vaktini yuz martalab kiskartiradi, ishlab-chikarish samaradorligini oshiradi.

### Modulning maqsadi va vazifasi

Avtomobillar va traktorlarni avtomatik loyihalash tizimlari modulining maqsad va vazifalari:

- Avtomobilsozlik va traktorsozlikdagi loyihalash va yaratishda injenerlik masalalarini SAD,CAM,CAE avtomatlashdirilgan loyixalash tizimlarida elektron loyixa xujjatlarni tayyorlash va malakasini yaratishdir.
- Avtomobilsozlik va traktorsozlikdagi SAD,CAM,CAE dasturlarida ishlash bo'yicha amaliy ko'nikmalar, SAD,CAM,CAE bo'yicha yangilanayotgan dastur ta'minotlari bilan tanishtirish va ularda injenerlik masalalarini echish o'rgatish

## **Modul bo'yicha tinglovchilarining bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

Avtomobillar va traktorlarni avtomatik loyihalash tizimlari modulni o'zlashtirish orqali quydagi bilimq ko'nikma va malakaga ega bo'ladi:

### **Tinglovchi:**

- avtomobil` va traktorlarni avtomatik loyihalash tizimlari - AutoCAD, Kompas, T-Flex, SolidWorks dasturlari va maxsus avtomatik loyihalash tizimlari SAE dasturlari to'g'risida bilishi kerak.

### **Tinglovchi:**

- avtomobil` va traktorlarni avtomatik loyihalash tizimlari - AutoCAD, Kompas, T-Flex, SolidWorks, SAE dasturlarida ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

### **Tinglovchi:**

- avtomobil` va traktorlarni avtomatik loyihalash tizimlari vazifalaridan kelib chiqib loyihalashdagi modellashtirish, texnik echimlarni qabul qilish, optimallash usullarini to'g'ri tanlay bilish kompetensiyalariga ega bo'lishi lozim.

## **Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar**

"Avtomobillar va traktorlarni avtomatik loyihalash tizimlari " moduli ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi. Kursni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikasiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezентasjon va elektron-didaktik texnologiyalardan;

- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlardan, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishslash, kollokvium o'tkazish, va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

## **Modulning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan bog'liqligi va uzviyligi**

Mazkur modul "Avtomobilsozlik va traktorsozlik" kursidagi fanlar bilan uzviy bog'liq

## **Modulning oily ta'limdagisi o'rni**

Respublikamizdagи ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijalari va hududiy muammolarining texnologik mashinalar termodinamikasiga ta'siri masalalarini qamraydi.

## Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat						
		Xammasi	Auditoriya o'quv yuklamasi				Mustaqil ta'lim	
			jumladan		Nazariy	Amaliy mashg'ulot		
			jam'i					
1.	Kirish. SAD–avtomatlashtirilgan loyixalash tizimi. Loyiha va loyihalash. Loyihalash usullari. Loyihalashda modellash. CAD/CAEga misollar	6	4	2		2		2
2.	Avtomobillar va traktorlarni avtomatik loyihalash tizimlari (ALT)ni yaratish printsiplari, tarkibi va strukturası	8	8	2	6	-		-
3.	Avtomobillar va traktorlarni avtomatik loyihalash tizimlari ALT ta'minoti turlari. Avtomatlashtirilgan loyihalashning texnik vositalari	8	6	2	4	-		2
4.	Xozirgi avtomobillar va traktorlarni avtomatik loyihalash tizimlari (CAD/CAM/CAE) ning loyixalashdagi o'rni. AutoCAD va Kompas ALT dasturlari	8	8	2	4	2		
	Jami:	30	26	8	14	4		4

### NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

#### **1. Mavzu: Kirish. SAD–avtomatlashtirilgan loyixalash tizimi. Loyiha va loyihalash. Loyihalash usullari. Loyihalashda modellash. CAD/CAEga misollar**

Kirish. Loyiha va loyihalash. Loyihalash usullari. Loyihalashda modellash. CAD/CAEga misollar. CAD sistemasining asosiy mohiyati va ustunligi .CAD sistemasining tarkibi.

## **2. Mavzu: Avtomobillar va traktorlarni avtomatik loyihalash tizimlari (ALT)ni yaratish printsiplari, tarkibi va strukturasi**

ALTni yaratish printsiplari. Texnikaviy ob'yekekti loyihalash. ALT – inson-mashina tizimidir. ALT – ierarxik tizim. ALT – ochiq va rivojlanuvchi tizimdir. ALT–unifikatsiyalashgan modullar maksimal foydalaniladigan ixtisoslashgan tizimdir.

### **3. Mavzu: Avtomobillar va traktorlarni avtomatik loyihalash tizimlari ALT ta'minoti turlari. Avtomatlashtirilgan loyihalashning texnik vositalari**

ALT matematik ta'minoti (MT). ALT dasturaviy ta'minoti (DT). ALT informatsion ta'minot. ALT texnikaviy ta'minoti. ALT lingvistik ta'minoti. ALT klassifikatsiyasi. Loyihalash ob'yektining turi va hillari. Loyihalash ob'yektining murakkabligi. Loyihalashni avtomatlashtirish darajasi va kompleksliligi. ALTning boshqa avtomatlashtirilgan tizimlar bilan o'zaro ta'siri.

### **4. Mavzu: Xozirgi avtomobillar va traktorlarni avtomatik loyihalash tizimlari (CAD/CAM/CAE) ning loyixalashdagi o'rni. AutoCAD va Kompas ALT dasturlari**

CAD tizimlari va dasturlari. CAM tizimlari va dasturlari. CAE tizimlari va dasturlari. AutoCAD dasturi. Kompas dasturi.

## **AMALIY MASHG'ULOTLAR MAVZUSI**

### **1-amaliy mashg'ulot :ALT dasturlarida oddiy geometrik shakllarni bajarish. 6 soat**

ALT dasturlarida chizmalarga o'lchamlar qo'yish belgilar va matn kiritish. ALT dasturlarida chizmalarni taxrirlash.

### **2- amaliy mashg'ulot: ALT dasturlarida fazoviy modellarni qurish. 4 soat**

ALT dasturlarida fazoviy modellardan proeksiya chizmalarini qurish. ALT dasturlarida fazoviy modellarda qirqimlarni bajarish. ALT dasturlarida fazoviy

modellarning yig‘ma modellarini qurish. ALT dasturlarida yig‘ma chizmalarini tayyorlash va spetsifikatsiyalarni to‘ldirish

**3-amaliy mashg’ulot:Mathcad dasturi. Kiritilgan operatorlar yordamida  
xisoblash. 4 soat**

Umumiyl tusunchalar; Ikki ilchamli va yuzali grafiklarni xosil =ilish.  
Tenglamalarni echish.

## O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustaqamlash);
- davra suhbatlari (ko'rilibayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

## BAHOLASH MEZONI

Nº	Baholash mezoni	Maksimal ball	Izoh
1	“Avtomobillar va traktorlarni avtomatik loyihalash tizimlari” moduli bo'yicha	2.5	Keys – 1.5 ball Test – 0.5 ball Mustaqil ish – 0.5 ball

## **II. Modulni o'qitishda foydalaniladigan intrefaol ta'lif metodlari**

### **“SWOT-tahlil” metodi.**

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostonart tafakkurni shakllantirishga **xizmat qiladi**.

S – (strength)	• kuchli tomonlari
W – (weakness)	• zaif, kuchsiz tomonlari
O – (opportunity)	• imkoniyatlari
T – (threat)	• to'siqlar

**Namuna:**

### **“Xulosalash” (Rezyume, Veer) metodi**

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, kceptarmo?li, mumkin ?adar, muammoli xarakteridagi

Mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foya va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'quvchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. "Xulosalash" metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

## Metodni amalga oshirish tartibi



trener-o'qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur b'elgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni тарқатади;



har bir guruh o'ziga berilgan muammoni atroficha tahlil qilib, o'z mulohazalarini tavsiya



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o'z taqdimotlarini o'tkazadilar. Shundan so'ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotl bilan to'ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

### Namua:

#### Termodinamik tizimlar

Ochiq		yopiq		Izolyatsiyalangan	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi

### Xulosa:

#### “Keys-stadi” metodi

« Keys-stadi » - inglizcha so'z bo'lib, ("case" - aniq vaziyat, hodisa, "stadi" – o'r ganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'r ganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o'r ganishda foydalanish tartibida qo'llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeahodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), qachon (When), qaerda (Where), Nima uchun (Why), qanday/ qanaqa (How), Nima-natija (What).

## "Keys metodi" ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
<b>1-bosqich:</b> Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish;</li> <li>✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda);</li> <li>✓ axborotni umumlashtirish;</li> <li>✓ axborot tahlili;</li> <li>✓ muammolarni aniqlash</li> </ul>
<b>2-bosqich:</b> Keysni aniqlashtirish va o'quv topshiriqni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash;</li> <li>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash</li> </ul>
<b>3-bosqich:</b> Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshiriqining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish;</li> <li>✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish;</li> <li>✓ muqobil yechimlarni tanlash</li> </ul>
<b>4-bosqich:</b> Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash;</li> <li>✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;</li> <li>✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish</li> </ul>

### Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlari:

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang(individual va kichik guruhda).
- Mobil ilovani ishga tushirish uchun bajariladagina ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish).

### "Insert" metodi

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod o'quvchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilmlarni o'zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida o'qllaniladi, shuningdek, bu metod o'quvchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o'taydi.

#### Metodni amalga oshirish tartibi:

- o'qituvchi mashg'ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot k'rnishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta'lif oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko'rinishida namoyish etiladi;
- ta'lif oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o'z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishslashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	1-matn	2- matn	3- matn
“V” – tanish ma'lumot.			
“q” – mazkur ma'lumotni tushunmadim, izoh kerak			
“+” bu ma'lumot men uchun yangi.			
“-” bu fikr yoki ma'lumotga qarshiman			

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta'lif oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo'lган ma'lumotlar o'qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to'liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg'ulot yakunlanadi.

### "Tushunchalar tahlili" metodi

**Metodning maqsadi:** mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi.

#### Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg'ulot ?oidalari bilan tanishtiriladi;
- o'quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lган so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi ( individual yoki guruhli tartibda);
- O'quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tuliq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

### **I I I. Nazariy mashg'ulot materiallari**

#### **1. Mavzu: Kirish. SAD–avtomatlashtirilgan loyixalash tizimi. Loyiha va loyihalash. Loyihalash usullari. Loyihalashda modellash. CAD/CAEga misollar**

**Reja:**

1. Kirish;
  2. Loyiha va loyihalash.
  3. Loyihalash usullari.
  4. Loyihalashda modellash.
- 5. CAD/CAEga misollar**

#### **Asosiy qismi**

*Muhokama plani*

Siz Cad sistemasi orqali loyihalashni texnikasini o'rganishingiz kerak (Computer Aided Design)

#### **Tayanch so'z va iboralar**

CAD sistemasining asosiy mohiyati va ustunligi

CAD sistemasida ishlatiladigan terminologiyalarva modellashtirish texnologiyasi Nimaga loyihalashtiruvchilar CAD sistemasini qo'lida chizishga qaraganda maql ko'rishadi

Jarayondek loyihalashtirish

CAD sistemasining tarkibi

**CAD** – ingliz tilida qisqartirilgan Computer Aided System (loyihalash jarayonini avtomatlashtirish), shunga ko'ra

**CAE** – ingliz tilida qisqartirilgan Computer Aided Engineering (muhandislik jarayonini avtomatlashtirish).


1.CAD sistemasi chizmachilikda ko'proq ishlatilinadi, CAE bo'lsa analiz qilishda foydalaniladi. CAD va CAE sistemalari ko'pincha zamonaviy dasturiy ta'minotlar yordamida CAD/CAE birgalikda ishlatilinadi. Zamonaviy muhandislar CADning ACAD, Pro - E, Solid Works, Turbo CAD turlaridan foydalaniladi. Lekin CAD sistemasining har bir turini yaxshi va yomon tomonlari bor, ularning bari bir analogli: Loyihalashtiruvchining g'oyalarini reallashtirishga qarashish. CAD sistemasida ishlashni o'ragnish uchun juda ko'p vaqt kedati. Lekin,Loyihalashtiruvchilar CAD sistemasida ishlashni o'rganganlaridan kegin, aerodinamika tekkisligi singari kabitdir. Bundan tashqari, loyihalashtirish jarayonini tushunish loyihalashtirishning asosiy jihatidan biridir. Loyihalashtirish voqtida sinov va hatoliklar bo'ladi, lekin loyihalashtirishni yaxshi biladiganlar uchun sinov va hatoliklar soni oz bo'lib, ishlab chiqarish nazariyasining effekti oshadi. Bu bobda CAD va CAE da loyihalashtirishni ko'rib chiqamiz.

## Loyihalashtirish jarayonini avtomatlashtirish

2.Loyihalashtirish bu mahorat. Ihtiro qila olish eng asosiy qisimdan iborat. Yangi loyihaning g'oyalari bizning boshimizda joylashgan va u haqiqatdan ishlab chiqilishi kerak. Odatta qolda chizilgan chizmalardan foydalanib, chizma doskasidan qurolidan ishlatilinadi, texnik qurollar, shablon va boshqalar. Hozirgi zamonaviy dunyoda ilg'or tehnologiyalar, o'z ichiga kompyuterni qo'shami, OMI qurilmasi (odam-moshina interfeysi), qiyin dasturiy taminotlar yangi asosni yaratdi, «Loyihalash Jarayonini Avtomatlashtirish» deb nomlanadi. Takomillashgan CAD sistemasi tufayli, CAE sistemasi hosil bo'ldi, qaysiki u orqali quyidagi kompleks tahlillarni qilish mumkin: Kuchlanish tahlili, Termik tahlili, Suyuqlik tahlili, Dinamik tahlil. Barcha tahlillarni Multi-Sim, ANSIS yoki Abacus dasturlaridan foydalanib bajarish mumkin. Bu qisimda Cadning foydali tomonini, uning ilovalarini hamda uning qo'lida chizilgan chizmalardan ustunligini shuningdek barcha hollarga misollar keltirilgan hamda zamonaviy CAD sistemalarida ko'rib chiqamiza. Bu qisimda aniqlashtirishlar va terminlar ko'rsatilgan. Shunday qilib, CAD ning umumiy mohiyatini tushunish kitobning qolgan boblarini tushunishga yordam beradi.

**Aniqlashtirish:** CAD terminini muhandislarga loyiha jarayonida suratlarni chizishda va manipulyatsiyalashga (loyiha prototipi) yordam beradi.

2D yoki 3D rasmlarni yaratishni va manipulyatsiyalashni onsonlashtirish uchun, CAD har hil geometric modellarni taqdim etadi, shunday shablonlar, ramz va diogrammalar, qaysiki CAD sistemasining asosini tashkil qiladi. Birinchi o'rinda geometric modellar abstract loyihalarni yaratishda hamda jarayonni hisoblashda yordam beradi. Zamonaviy loyihalashtirish jarayonlarida, CAD orqali modellashtirish CAE bilan birgalikda tekshiriladi. Tekshirish jarayonini maqsadidan kelib chiqib bitta model har xil ko'rinishda berilishi mumkin. Misol uchun 1.1 rasmida shatunning asosiy ko'rinishi ikki hil turda keltirilgan. Chap tomonda Statik va dinamik tahlillar uchun osonlashtirilgan kinematic model ko'rsatilgan, o'ng tomonda esa ChET (Cheklangan Element Texnikasi) kuchlanish va qarshilik tahlili chizilgan.



**1.1 rasm** Shatunning proyektlash jarayoniga qarab turli modellari tasviri.

3.Ushbu model bilan, dizayner faqat g'oyalarini taqdim olmaydi, balki g'oyalar va mahsulot ma'lumotlarni almashish uchun boshqa dizaynerlar bilan muloqot qilishi mumkin. Geometrik modellar ko'pincha dizayneri tili, shuningdek geometrik modellar dizaynerlar bir-biri bilan muloqot qilish imkonini beradi, deb ataladi. Dizaynerlar turli SAPR dasturlarida o'z dizaynlashtirilgan yaratish bo'lsa ham, hamma narsa muhandislik intizom standartlashtirilgan geometrik modellashtirish, chunki, ular osonlik bilan, boshqa dizaynerlar aylanadi mumkin. Shunday qilib, geometrik modellar dizayni jarayonida ishtirokchilar o'rtasida fikr almashish uchun ajoyib vosita hisoblanadi.

### **Bu bilish muhim ahamiyatga ega (geometrik modellari ikki asosiy maqsadlari)**

- geometrik model loyiha
  - andozalar, ramzlar, grafika
  - dizayner Til
  - modellashtirish ahamiyati
1. Prezentatsiya
    - mavhum g'oyalar amalga oshirish
    - Hisob
  2. Aloqa
    - dizayn jarayonida ishtirokchilar orasida g'oyalar va loyihalarni almashinish

Aqlga kelgan Keyingi savol ", Nima uchun SAPR?». Lekin, dizaynerlar qo'l chizilgan va diagrammalar bilan ikki asosiy maqsadlarga erishish mumkin, nima qaramay, SAPR tizimlari dizayn jarayonining ko'p jihatlari xizmat qilmoqda. Birinchidan, tizim dizayner dizayn jarayoni davomida ish faoliyatini oshirish SAPR. Bu g'oya tushunish va haqiqatga ularni tarjima qilish yordam beradi. Bundan tashqari, joa tizimi tufayli, sinov muddati kamayadi. Ikkinchidan, SAPR tizimlari uchun foydalanish, keng tahlil qilish qobiliyatiga hisobidan dizayn sifatini oshiradi. Loyihaning jadal rivojlantirish SAPR tizimlari vositalari, tufayli, chiquvchilar eng optimal tanlash uchun ko'proq muqobil loyihalarni o'rganish va iste'molchilar talablariga javob mumkin. Uchinchidan, tufayli takomillashtirilgan tasvir, katta standartlashtirish va imlo xatolar kamaytirish - barcha hujatlar sifatini oshirish. so'nggi SAPR tizimlarida, Overlay, sabr-bardoshga, shuningdek, grammatick va belgilar tekshirishlarini tekshirib final o'yini tekshirish bir tizim xatosi bor. To'rtinchidan, eng zamonaviy SAPR tizimlari loyiha bevosita ishlab chiqarish bazalarini yaratish qobiliyatini ta'minlaydi. Bunday materiallar, butlovchi buyumlar ko'lamiga geometrik xususiyatlariga va hatto moddiy xususiyatlari, ishlab chiqarish ma'lumotlar, kelajakda ishlab chiqarish jarayonida foydalanish uchun bevosita hosil bo'lishi mumkin. geometrik modellashtirish ma'lumotlar, muhandis, loyiha-tadqiqot asosidir, va ba'zan ilg'or SAPR tizimlari


avtomatlashtirilgan tizimini rivojlantirish loyihasi qondirish mumkin - Nihoyat, SAPR tizimlari butun rivojlanish jarayonini osonlashtirish xususiyatlari turli xil taklif etamiz. 4."Nima uchun CAD?" CAD tizimlari tomonidan taqdim barcha bu xususiyatlar, savolga javob bor. 1.1-jadval SAPR tizimlari ish bilan qo'lda chizilgan an'anaviy usullar bilan taqqoslash ko'rsatadi.

### 1.1 jadval CAD bilan qo'lda chizilganning farqi

Qo'l bola usul	CAD
muhandis tomonidan shurupdan tortib binogacha loyihalashtiriladi	Geometrik metod bilan aniqlashni taminlaydi
Monje loyihasi samalyotdek murakkab chizmalarda ishlatilinadi	Yagona tahlillar ishlatilinadi
Diagrammalar har qanday tizim vakillik qilish uchun foydalanish mumkin	Sezilarli darajada dizayn jarayonini kamayadi (bir vaqtning o'zida muhandislik)
Loyihaning qurilish va aql ko'nikma va tajriba talab qiladi	Minimal tajriba ish uchun zarur bo'lgan, lekin u tahliliy ko'nikmalarini talab
Qarama-qarshi yoki noto'g'ri modellari bor	Siz avtomatik ravishda har bir modelida xatolarini tekshiramiz
zamonaviy mahsulotlari bilan ishlashda qiyinchiliklar	murakkab zamonaviy mahsulotlari bilan ishlash uchun mos
Tadqiqot va ishlab chiqarish uchun qo'shimcha fikr yaratishda qiyinchiliklar	Osonlik bilan kelgusi jarayonlarni bajarish
Chizmalar chizmadagi hatolik yoki insoniy hatoliklar bilan hato tushunish mumkin	chizmani bajarishdagi yuqori aniqlik, tushunishdagi hatoliklar kamligi
Chizmaning o'lchami qog'ozning fizik tomonidan cheklanganligi	Chizmaning o'lchami cheklanmagan

Jadvalda ko'rsatilgan, muhandislar hali ko'p oziq-ovqat uchun qo'llanma o'yini foydalanayotgan. Zamonaviy SAPR tizimlari yordamida qo'l-o'yinining asosiy tamoyillari eng. Biroq, SAPR tizimlari ko'plab afzalliklarga ega. Misol uchun, shakl. 1,2 kompas bilan bir doira yaratish faqat bitta yo'li bor, bir qo'lda usuli esa, goh yordamida bir doira yaratish olti xil usullarini ko'rsatadi.

5. Misol uchun, bir SAPR doira markazi va radiusi uch nuqta bilan, chiziqlar bilan chizish, markazi va ikki uchi nuqtaga va liniya ikki perpendikulyar yoki yuzaki (tomonlarini) nazaridan orqali chiziqlarga yordamida hosil qilinishi mumkin.



**Rasm 1.2** Doira yaratishning usullari.

SAPR tizimlari Agar bir vaqtning o'zida dizayn jarayoni juda boshida va ishlab chiqarish jarayoniga loyihaning turli qismlarida ustida ish olib mumkin, bir davrda va muhandislik, imkon sifatida. Bu iqtisodiy foyda va katta foyda yaratuvchisi beradi bozorida mahsulot yanada tez chekinishi beradi.

Shunday qilib, maqsad, kompyuter simulyatsiya uchun SAPR tizimlari foydalanish va turli loyihalar orasida majburiydir. Sana, dastur goh ikki aniq darajasiga. asosiy darajali Chad chizmalar, diagrammalar bilan ishlash uchun, shuningdek, loyihada ishlatiladigan buyumlar ro'yxatini yaratish uchun ishlatiladi. CAE tizimi bilan ikkinchi, yanada ilg'or darajasi, SAPR tizimi ilg'or dizayn imkonini beradi. Tez Prototipleme ko'pincha dizayn tekshirish va funktional tekshirish uchun ishlatiladi.

### Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

1. Dugan Um. Soild Modeling and Applications. CAD/CAE. Rapid Prototyping/ Springer. United States of America, 2016.
4. Tulaev B. Loyihalash jarayonlarini avtomatlashtirish. - T.: TDTU, 2008.
5. Malyux V.N. Vvedenie v sovremennie SAPR:- M.: DMK Press, 2010.- 192 s
6. Osnovi avtomatizirovannogo proektirovaniya. M.: Izdatel'stvo MGTU imeni N.E Bauman. 2002. 333 s.

## **2. Mavzu: Avtomobillar va traktorlarni avtomatik loyihalash tizimlari (ALT)ni yaratish printsiplari, tarkibi va strukturasi**

**Reja:**

1. ALTni yaratish printsiplari.
2. Texnikaviy ob'yecktni loyihalash
3. ALT – inson-mashina tizimidir
4. ALT – ierarxik tizim

### **Tayanch so'z va iboralar**

ALT – ochiq va rivojlanuvchi tizimdir. ALT – unifikatsiyalashgan modullar maksimal foydalaniladigan ixtisoslashgan tizimdir.

#### **1. ALTni yaratish printsiplari**

**Texnikaviy ob'yecktni loyihalash** ushu ob'yeckt obrazini qabul qilingan forma (shakl)da yaratish, qayta o'zgartirish va tasvirlab berish bilan bog'liq. Ob'yeckt yoki uning tarkibiy qismining obrazi inson tasavvurida ijodiy jarayon natijasida yaratilishi yoki inson va EHMlarning o'zaro ta'siri jarayonida ba'zi algoritmlar bo'yicha yuzaga kelishi (generirovat'sya) mumkin.

Loyihalash – loyihalash uchun topshiriq bo'lган holda bajariladi. Topshiriq jamiyatning qandaydir texnikaviy buyumni olishga bo'lган ehtiyojini aks ettiradi. Bu topshiriq u yoki bu hujjatlar ko'rinishida bo'ladi va *ob'yecktning birlamchi bayoni* vazifasini bajaradi. Loyihalash natijasini, odatda, ob'yecktni berilgan sharoitlarda tayyorlash uchun etarli ma'lumotlarni jamlagan hujjatlarning to'liq komplekti o'taydi. Bu hujjatlar *ob'yecktning natijaviy bayoni* bo'ladi.

Loyihaviy yechimlarning hammasi yoki bir qismi inson va EHMlarning o'zaro ta'siri y o'li bilan olinadigan loyihalash *avtomatlashtirilgan* deb, EHMdan foydalanilmaydigan loyihalash esa, *avtomatlashtirilmagan* loyihalash deb ataladi.

*Loyihalash* – bu ob'yecktning birlamchi bayoni va (yoki) uni mavjud qiladigan algoritm asosida berilgan sharoitda ham mavjud bo'lмаган ob'yecktni yaratish uchun zarur bo'lган bayonini tuzish jarayonidir. Loyihalash berilgan talablarga javob beradigan, yangi buyumni yaratish yoki yangi jarayonni amalga oshirish uchun zarur va yetarli bo'lган loyihalanadigan predmet bayonini olish maqsadidagi izlanish, tadqiqot, hisob va konstruktsiyalash bo'yicha ishlar majmuini o'z ichiga oladi. Loyihalash – bu chuqur ilmiy bilimlarga va ijodiy izlanishlarga hamda ma'lum sohada to'plangan tajriba va ko'nikmalardan foydalanishga asoslangan, lekin sermashaqqat oddiy ishlarni bajarish zarurati bo'lган inson bunyodkorlik faoliyatining murakkab, o'ziga xos turidir.

*Loyihalashni avtomatlashtirish* deganda loyihani ishlab chiqish jarayonini bajarishning shunday usuli tushuniladiki, bunda loyihalash protseduralari va operatsiyalari loyihalovchining EHM bilan chambarchas muloqotida amalga oshadi. Loyihalashni avtomatlashtirish hisoblash texnikasi vositalaridan muntazam ravishda

foydanishni nazarda tutadi; bunda loyihalovchi va EHM orasidagi funksiyalarini ratsional taqsimlash va masalalarni mashinada yechish metodlarini asosli tanlash lozim.

ALTni yaratish uchun:

- matematik metodlar hamda hisoblash texnikasi vositalarini qo'llash asosida loyihalashni takomillashtirish;
- izlash, ishlov berish va informatsiya (ma'lumot)ni chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish;
- optimallashtirish va ko'p variantli loyihalash metodlaridan foydalanish;
- loyihalanayotgan ob'yektlar, buyumlar va materiallarning matematik modellarini samarali qo'llash;
- ob'yektlarni avtomatlashtirilgan loyihalash uchun zarur bo'lgan, ma'lumotnomaga tavsifidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarga ega ma'lumotlar bankini yaratish;
- loyiha hujjatlarini shakllantirish (rasmiylashtirish) sifatini oshirish;
- ijodiy bo'limgan ishlarni avtomatlashtirish hisobiga loyihalovchilar mehnatining ijodiy ulushini oshirish;
- loyihalash metodlarini unifikatsiyalash va standartlashtirish;
- ALT sohaqidagi mutaxassislarini tayyorlash va qayta tayyorlash;
- loyihalovchi bo'limlarning turli darajadagi hamda vazifasi har xil bo'lgan avtomatlashtirilgan tizimlar bilan mustahkam aloqada ishlashi zarur.

*Avtomatlashtirilgan loyihalash tizimi (ALT)* – avtomatlashtirilgan loyihalashni bajaruvchi loyihalovchi tashkilot yoki mutaxassislar jamoasi bilan bog'langan avtomatlashtirilgan loyihalash vositalarining majmuidir. ALT texnikaviy vositalar hamda matematik va dasturaviy ta'minlashni birlashtiradi; matematik va dasturaviy ta'minot muhandislik loyihalash va konstruktsiyalash masalalarining xususiyatlarini maksimal hisobga olgan holda tanlanadi. ALTda muhandisning EHM bilan operativ bog'lanishi vositalari, maxsus muammoliyo'naltirilgan tillar va informatsion-ma'lumot bazasi qo'llanilishi hisobiga dasturlardan foydalanish qulayligi ta'minlanadi.

**A L T n i n g a s o s i y v a z i f a s i** – ob'yekt va uning tarkibiy qismlarini loyihalashni avtomatlashtirilgan tarzda bajarishdir. ALT va uning tarkibiy qismlarini yaratishda tizimiylar birlik, bir-biriga mos kelish, tipik xususiyatlarga qarab tip va turlarga bo'lish hamda rivojlanish printsiplariga amal qilish lozim.

**T i z i m i y b i r l i k p r i n t s i p i .** Loyihalanayotgan ob'yektning alohida elementlari va ob'yektni to'liq loyihalashda tizimning bir butunligini va tizimiylarini «yangilik»ni ta'minlaydi.

**B i r - b i r i g a m o s k e l i s h p r i n t s i p i** ALTning tarkibiy qismlarining birgalikda ishlashini ta'minlaydi va ochiq tizimni bir butunlikda saqlaydi.

**T i p i k x u s u s i y a t l a r g a q a r a b t i p v a t u r l a r g a b o ' l i s h p r i n t s i p i** ALTning tipiklashgan va unifikatsiyalashgan elementlarini yaratish va ularidan foydalanishga e'tiborini qaratadi.

Rivojlanish printsipi ALT asosiy qismlarining to‘ldirib borilishini, takomillashtirilishini va yangilanib borishini hamda darajasi va funktsional vazifasi turlicha bo‘lgan avtomatlashtirilgan tizimlar bilan birgalikda ishlashini ta’minlaydi.

**ALT – inson-mashina tizimi.** EHM yordamida hamma tuzilgan va tuzilayotgan loyihalash tizimlari avtomatlashtirilgan tizimlarga kiradi. Ularda loyihani texnikaviy vositalar yordamida ishlayotgan inson muhandis salohiyatli o‘rin egallaydi. ALTda inson birinchidan formalizatsiya qilinmagan masalani va ikkinchidan insonning evrestik qobiliyatlari asosida samaraliroq echiladigan masalalarni yechadi.

**ALT – ierarxik tizim.** U hamma darajalarda loyihalashni avtomatlashtirishga kompleks yondoshuvni amalga oshiradi. ALT qo‘llanilganida loyihalashga blokli-ierarxik yondoshuv saqlanib qolishi kerak. Loyihalashning ierarxik darajalari ierarxik nintizim ko‘rinishida ALTning maxsus dasturaviy ta’moti (DT) strukturasida o‘z aksini topadi.

*Loyihalash* – tadqiqot, hisoblash va konstruktorlik tavsifidagi ishlar kompleksini bajarish asosida ob’yektning birlamchi bayonini natijaviy bayonga o‘zgartiradigan jarayondir.

Birlamchi bayonni natijaviy o‘zgartirish oraliq bayonlarni tug‘diradi; ular loyihalash tugaganini aniqlash yoki uni davom ettirish yo‘llarini tanlash maqsadida qarab chiqiladigan predmet vazifasini o‘taydi. Bunday bayonlarni loyihali yechimlar deyishadi.

**ALT – ochiq va rivojlanuvchi tizimdir.** ALT vaqt o‘tishi bilan o‘zgaruvchi tizim bo‘lishi kerakligiga kamida ikkita sabab bor. Birinchidan, ALT kabi murakkab ob’ektni ishlash uzoq muddatni egallaydi, shuning uchun ALT tizimining qismlari tayyor bo‘la borgani sari ularni ekspluatatsiyaga kiritish iqtisodiy nuqtai nazardan foydalidir. Ekspluatatsiyaga kiritilgan tizimning bazaviy varianti keyinchalik kengaytirib boriladi. Ikkinchidan, hisoblash texnikasi va hisoblash matematikasining doimiy progressi yangi, ancha takomillashgan matematik modellar va dasturlar paydo bo‘lishiga olib keladi; ular eskirgan, samaradorligi kam bo‘lgan analoglarni almashtirishi kerak. Shu sababli ALT ochiq tizim bo‘lishi, ya’ni yangi metod va vositalarni ular ulash qulay bo‘lgan qobiliyatga ega bo‘lishi zarur.

**ALT – unifikatsiyalashgan modullardan maksimal foydalaniladigan ixtisoslashtirilgan tizimdir.** Yuqori effektivlik va universallik talablari, odatda, bir-biriga qarama-qarshidir. Loyihalash vazifalarini yechishda kam vaqt va materiallar sarf bo‘lishida ifodalanadigan ALTning yuqori samaradorligiga tizimlarning ixtisoslashtirilishi hisobiga erishiladi. Ixtisoslashtirilgan ALTni ishlab chiqishga ketadigan sarfni kamaytirish uchun ularni unifikatsiyalashgan tarkibiy qismlardan maksimal foydalangan holda tuzish maqsadga muvofiqdir. Unifikatsiyalashning zaruriy sharti – turli texnikaviy ob’yektlarni modellashda, tahlil va sintez qilishda umumiy holatlarni qidirishdadir.

## **2. ALT tarkibi va strukturasi**

Nimtizimlar ALTning tarkibiy strukturaviy qismi bo‘lib, loyihalovchi tashkilotning tashkiliy strukturasi bilan chambarchas bog‘lanadi; ularda ixtisoslashgan vositalar kompleksi yordamida ALTning funksional tugal masalalar ketma-ketligi yechiladi.

Vazifasi bo‘yicha nimtizimlarni loyihalovchi va xizmat ko‘rsatuvchilarga ajratishadi.

**Loyihalovchi nimtizimlar.** Ular ob’yektga yo‘nalgan bo‘ladi va loyihalashning ma’lum bosqichini yoki o‘zaro bevosita bog‘langan loyihalash masalalarining bir guruhini amalga oshiradi.

\* Loyihalovchi nimtizimlarga misollar: buyumlarni eskiz loyihalash, korpus detallarini loyihalash, mexanik ishlov berish texnologik jarayonlarini loyihalash.

**Xizmat ko‘rsatuvchi nimtizimlar.** Bunday nimtizimlar umumiyligi tizimga ishlataladi va loyihalovchi nimtizimlar o‘z funktsiyalarini bajarishda ularni qo‘llab-quvvatlashni hamda ularda olingan natijalarni shakllantirish, uzatish va chiqarishni ta’minlaydi.

\* Xizmat ko‘rsatuvchi nimtizimlarga misollar: avtomatlashtirilgan ma’lumotlar banki, hujjatlashtirish nimtizimlari, grafik kiritish-chiqarish nimtizimi.

ALTning tizimiyligi birligi bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan modullarning mavjudligi hamda o‘zaro bog‘lanishni amalga oshiruvchi interfeyslar tizimi kompleksi bilan ta’minlanadi; modullar loyihalanadigan ob’yektni butunligicha belgilaydi. Loyihalovchi nimtizimlar ichidagi tizimiyligi birlik ushbu nimtizimda loyihaviy yechimi olinishi kerak bo‘lgan ob’yekt qismining yagona informatsion modeli mavjudligi bilan ta’minlanadi.

Amaliy masalalarda loyihalanadigan ob’yekt modellarini shakllantirish va ularidan foydalanish avtomatlashtirilgan loyihalash tizim (yoki nimtizim)lari vositalari kompleksi (ALTVK) bilan amalga oshiriladi.

ALTVK tizimining strukturaviy qismlari bo‘lib turli vositalar komplekslari hamda tashkiliy ta’minlash komponentlari xizmat qiladi. Vositalar kompleksi – ALTning mos loyihalovchi va (yoki) xizmat ko‘rsatuvchi nimtizimlaridan foydalaniladigan, tirajlash uchun mo‘ljallangan va ma’lum klass (tur, rukum) ob’yektlarini loyihalashga yo‘nalgan va (yoki) unifikatsiyalashgan protseduralarni bajarishga mo‘ljallangan komponentlar va (yoki) vositalar kompleksi majmuidir.


Vositalar kompleksi tayyorlanadigan, tirajlanadigan va ALT tarkibida qo‘llaniladigan sanoat buyumlariga kiradi va spetsifikatsiyalanadigan buyumlar kabi hujjatlantiriladi.

ALT vositalari kompleksi va komponentlarining turlari (1.1-rasm). Vositalar kompleksini ikki turga: bir turdagisi ta’minlash vositalari kompleksiga (texnikaviy, dasturaviy, informatsion) va kombinatsiyalashgan vositalar kompleksiga ajratishadi.

3.Bir turdag'i ta'minot vositalari komplekslari bir turdag'i ta'minlash komplekslaridan va (yoki) komponentlaridan tarkib topadi; kombinatsiyalashgan vositalar komplekslari esa – har xil turdag'i ta'minlash komplekslari va komponentlari majmuidan tashkil bo'ladi. Vazifasi ishlab-chiqarish-texnikaviy bo'lgan mahsulotlarga taalluqli kombinatsiyalashgan ALTVKlar ikki turga bo'linadi:

- dasturaviy-metodik kompleks (DMK);
- dasturaviy-texnikaviy kompleks (DTK).

Dasturaviy metodik kompleks loyihalash ob'yekti (ob'yeqtning bir yoki bir necha qismi yoki bir butun ob'yekt) bo'yicha tugal loyiha yechimini olish yoki unifikatsiyalashgan protseduralarni bajarish uchun zarur bo'lgan dasturaviy, informatsion va metodik ta'minotlar (matematik va lingvistik ta'minotlar komponentlari bilan birga) komponentlarining o'zaro bog'langan majmuidan iborat.



2.1-rasm. ALT vositalari kompleksi va komponentlarining turlari

Vazifasi bo'yicha DMKlar umumtizimiyl DMKlarga va bazaviy DMKlarga bo'linadi; bazaviy DMKlar o'z navbatida muammoga yo'nalgan va ob'ektga yo'nalgan DMKlarga bo'linadi.

Dasturaviy-texnikaviy kompleks DMKlarning texnikaviy ta'minotning komplekslari va (yoki) komponentlari bilan o'zaro bog'langan majmuidan iborat.

Vazifasi bo'yicha DTKlar avtomatashtirilgan ish joyi (AIJ) va markaziy hisoblash komplekslari (MHK)ga bo'linadi.

Vositalar komplekslari o'zlarining hisoblash va informatsion resurslarini birlashtirib nimtizim yoki butun tizimlarning lokal hisoblash tarmoqlarini tashkil qilishi mumkin.

4. Dasturaviy informatsion, metodik, matematik, lingvistik va texnikaviy ta'minot turlarining komponentlari vositalar komplekslarining tarkibiy qismi hisoblanadi.

ALTVK funktsiyalarini samarali bajarishi vositalar komplekslari tarkibiga kiruvchi komponentlarni sotib olinadiganlari bilan o'zaro moslashuvini ta'minlagan holda ishlab chiqish hisobiga erishilishi kerak.

Umumtizimiylar DMKlar dasturaviy, informatsion, metodik va boshqa turdag'i ta'minotlarni o'z ichiga oladi. Ular boshqaruv, nazorat, hisoblash jarayonini rejalashtirish, ALT resurslarini taqsimlashni bajarish va nimtizim yoki butun ALT uchun umumiylar bo'lgan boshqa funktsiyalarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan.

Umumtizimiylar DMKlarga misollar: monitor tizimlari, ma'lumotlar bazalarini (MB) boshqarish tizimlari, informatsion-qidiruv tizimlari, mashina grafikasi vositalari, dialogli rejimni ta'minlovchi nimtizimlar va h.k.

*ALTda texnikaviy vositalar funktsiyalarini bajarishini boshqaruvchi monitor tizimlari.* Monitor tizimlarining asosiy funktsiyalari:

- talab qilinadigan va mavjud resurslar masalalari paketini nazorat qiluvchi topshiriqlarni ustuvorligi va navbat nomeri o'rnatilgan holda ma'lumotlar bazasiga kirish huquqini shakllantirish;
- topshiriqlar va masalalarni boshqarish tillarining yo'riqlariga ishlov berish hamda uzilishlarga boshqarishni ilib olib, uzilish sababini tahlil qilib va uni loyihalovchiga tushunarli terminlarda izohlab reaksiya (sezib ta'sir) qilish;
- nimtizimlar parallel ishlagan sharoitlarda dialogli va interaktiv-grafik hamrohligini tashkil qiluvchi masalalar oqimiga xizmat ko'rsatish;
- avtomatik rejimlarda loyihalash operatsiyalarining bajarilishi sifatini tahlil qilgan, bosqichning yoki marshrutning davom etishi mezonlari tekshirilgan, marshrutning alternativ qaytarilishi variantlarini tanlagen holda loyihalashni boshqarish;
- tizimni ekspluatatsiya qilish statistikasini olib borish va optimallashtirish;
- topshiriqlar masalalar va nimtizimlar, rejali topshiriqlar va joriy ko'rsatmalar va so'rovlar ustuvorligini hisobga olgan holda ALT resurslarini taqsimlash;
- resurslar va ma'lumotlarni ruxsat etilmagan kirishdan va nazarda tutilmagan ta'sirlardan himoya qilish.

*ALTda informatsion-qidiruv tizimlar* (IQT) quyidagi funktsiyalarni bajaradi:

- informatsion fond (infoteka)ni ma'lumotlar bilan to'ldirish;
- raqamli ma'lumotlarga arifmetik ishlov berish va matnlarga leksikaviy ishlov berish;
- informatsion so'rovлага zarur bo'lgan ma'lumotlarni qidirish maqsadida ishlov berish;
- chiquvchi ma'lumotlarga ishlov berish va chiquvchi hujjatlarni shakllantirish. IQTning xususiyati shundaki, ularga kelgan so'rovlar dasturaviy yo'l bilan emas, balki bevosita foydalanuvchi tomonidan shakllantiriladi va monitorga tushunarli bo'lgan formallahgan tilda emas, balki tayanch so'zlar ketma-ketligi ko'rinishida «deskriptor»lar deb nomlanuvchi tabiiy tilda shakllanadi. Saqlash uchun qabul

qilingan hamma bayonlarda bo‘lgan deskriptorlar ro‘yxati deskriptorlar lug‘atini tashkil qiladi va qidiruvchi yo‘riqlarni shakllantirishga mo‘ljallangan.

Deskriptorliga nisbatan ancha murakkab bo‘lgan IQTlar ham mavjud. Ularda informatsion-qidiruv tili katta ahamiyatga ega; bu tilda informatsion ob’yektlar orasidagi semantik munosabatlar hisobga olinadi. Bu esa noto‘g‘ri tanlanadigan til qurilmalari sonini kamaytirish imkonini beradi, so‘rovlarga ishlov berish esa ma’no mos kelishi mezonlari asosida bajariladi.

5. Ma’lumotlar banki katta ALTlarda informatsiyani tashkil qilishning yuqori shakli hisoblanadi. Ular – muammoli-yo‘nalgan informatsion-ma’lumotnomalar tizimlaridir. Bu tizimlar kiritishning muayyan vazifalariga bog‘liq bo‘lmagan zarur informatsiyalarni kiritishni, informatsion massivlar saqlanishini hamda foydalanuvchilar yoki dasturlar so‘rovi bo‘yicha zarur bo‘lgan informatsiyani chiqarishni ta’minlaydi. Ma’lumotlar bankida faktografik ko‘rinishdagi informatsiyadan foydalaniladi.

*Ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimi* (MBBT) – ma’lumotlar strukturasi ko‘rinishida tashkil qilingan informatsion baza bilan ishlashni ta’minlaydigan dasturaviy-metodik kompleksdir.

MBBT quyidagi asosiy funktsiyalarni bajaradi:

- ma’lumotlar bazasini aniqlab olish, ya’ni sxemalarning kontseptual tashqi va ichki darajalarini bayon qilish;
- ma’lumotlarni bazaga yozish;
- ma’lumotlarga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish, ularni qayta tashkil qilishni bajargan holda ularning saqlanishini tashkil qilish;
- ma’lumotlarga kira olishni ta’minalash (qidirish va chiqarib olish).

Ma’lumotlarni tanib olish va ularga kirish uchun MBBTda til vositalari mavjud. Masalan, ma’lumotlar strukturasi bayonidan tashkil topgan ma’lumotlarni tanib olish tili yordamida ta’milanadi. Ma’lumotlarga kirish funktsiyasi ma’lumotlarni manipulyatsiya qilish tili va so‘rov qilish tili yordamida amalga oshadi. Qo‘llab (tutib) turiladigan strukturalar bo‘yicha MBBTning ierarxik, tarmoqli va nisbiy (relyativ) turlari bo‘ladi.

*Mashina grafikasining dasturaviy-metodik komplekslari* (DMK) foydalanuvchining EHM bilan muloqotida grafik informatsiya almashinuvini, geometrik masalalarni yechishni, tasvirlarni shakllantirishni va grafik informatsiyani avtomatik ravishda tayyorlashni ta’milaydi. Foydalanuvchining EHM bilan grafik muloqoti («kirishning grafik metodi») kirish-chiqish nimdasturlariga asoslanadi; bu nimdasturlar kiritish-chiqarish qurilmalaridan olinadigan komandalarning qabul qilinishini va ularga ishlov berilishini hamda ushbu qurilmalarga boshqaruv ta’sirlarining chiqarilishini ta’milaydi. Geometrik masalalar yechimi (grafik modellash) grafik informatsiyani qayta o‘zgartirishga keltiriladi; bu o‘zgartirish qurish, burish, masshtablash va sh.k. turlardagi elementar grafik operatsiyalarni u yoki bu ketma-ketlikda bajarilishida ifodalanadi. Grafik modellash uchun DMKlardan foydalaniladi; ularda alohida elementar grafik operatsiyalardan tashqari uch o‘lchamli tasvirlarni grafik qayta o‘zgartirishlar, proektsiya, kesim va h.k.larni qurish

protseduralari amalga oshirilishi mumkin. Grafik o‘zgartirishlar DMKsida ba’zi tez-tez foydalaniladigan tasvirlarni shakllantirish, grafik ma’lumotlar bazasini boshqarish, grafikaviy nimdasturlarni sozlash uchun vositalar odatda nazarda tutiladi.

Dialogli rejim grafik va (yoki) belgi (simvol)li informatsiyalarni kiritish, nazorat, redaktorlash, qayta o‘zgartirish va chiqarishni amalga oshiradigan dasturaviy-metodik komplekslar yordamida amalga oshiriladi. Topshiriqlarni bajarilishini paket rejimida va uzoqdagi terminallarga natijalarni chiqarishni aloqa kanallari orqali ta’minlaydi. ALTda vazifasi umumiyl bo‘lgan dialogli DMKlar bilan bir qatorda ixtisoslashgan DMKlardan ham foydalanish mumkin. Vazifasi umumiyl bo‘lgan DMKlarni ALTni yaratish va ekspluatatsiya qilishning boshlang‘ich bosqichlarida qo’llash maqsadga muvofiq; bu DMKdan loyihalash metodologiyasini, ma’lumotlar va amaliy dasturlarga ishlov berish texnologiyasini ishlab chiqish va tekshirish uchun foydalaniladi. Keyinchalik ALTda dialogni tashkil qilish bo‘yicha maxsus talablarni hisobga olgan holda DMKlarni modifikatsiyalash mumkin. Bunda so’rovlarga dialogli yoki paketli rejimda ishlov berilishini; tizimning programmist bo‘limgan foydalanuvchiga yo‘nalishini; yuqori daraja tillardagi dialogli amaliy dasturlar kiritilishi (qo’shilishi) yo‘li bilan tizim kengaytirilishi mumkinligini; «menyu» va direktivalar yordamida dialogni boshqarish imkonini hisobga olish zarur. AJJ ruknlari uchun umumtizimiyl DMKlarning tavsiya qilinadigan to‘plami 1.1-jadvalda keltirilgan.

2.1-jadval.

<b>DMK nomi</b>	<b>Yuqori unumdorli AIJ</b>	<b>O‘rta unumdorli AIJ</b>	<b>Kam unumdorli AIJ</b>
Monitorli dialogli tizim	+	±	±
Dialogli rejimni ta’minalash	-	+	+
Ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimi (MBBT)	+	±	-
Dasturlash tillarining translyatorlari va <u>interpretatorlari</u>	+	+	+
Mashina geometriyasi va grafikasining vositalari:			
geometrik protsessor	+	±	-
grafik protsessor	+	+	+
Matnlarni hujjatlarni shakllantirish	±	+	+
Chizma-grafikaviy hujjatlarni shakllantirish	+	+	±
Umumtexnikaviy hisoblar	+	±	±
AIJ – AIJ, MHK – AIJ aloqalarini ta’minalash	+	+	+
Komponovka va topologiyani loyihalash	+	+	+
Optimallashtirish	+	±	-

\* Izoh: «+» texnikaviy vositaning bo‘lishi zarurligini bildiradi, «-» komponentlarning kompleks tarkibida bo‘lishining majbur emasligini bildiradi, «±» ushbu turdagи qurilma bilan komplektatsiyalanish zarurati AIJ yaratish bo‘lgan texnikaviy topshiriqda belgilanishi kerak.

M u a m m o l i y o ‘ n a l g a n DMKlar o‘z ichiga boshlang‘ich ma’lumotlarni, butun loyihalash ob’yektiga yoki uning yig‘ma birliklariga bo‘lgan talablar va cheklanishlarni avtomatlashtirilgan ravishda tartibga solish uchun mo‘ljallangan dasturaviy vositalarni; loyihalash ob’yektining fizikaviy ishlash printsipini tanlashni; texnikaviy yechimlarni va loyihalash ob’ekti strukturasini tanlashni; konstruktsiyalarning sifat ko‘rsatkichlari (texnologikligi)ni baholashni, detallarga ishlov berish marshrutini loyihalashni olishi mumkin.

O b ’ e k t l i - y o ‘ n a l g a n DMKlar loyihalash ob’ektlari xususiyatlarini predmet sohasi majmui sifatida aks ettiradi. Bunday DMKlarga, masalan, yig‘ma birliklarni; standart yoki qabul qilingan yechimlar asosida detallarni; shakl elementlaridan sintez asosida detallarni; detallarga ishlov berish turlari bo‘yicha texnologik jarayonlarni va h.k.larni loyihalashni avtomatlashtirishni qo‘llab-quvvatlaydigan DMKlar kiradi.

### **Foydalaniladigan adabiyotlar ro’yxati**

1. Dugan Um. Soild Modeling and Applications. CAD/CAE. Rapid Prototyping/ Springer. United States of America, 2016.
2. Prentice Hall .Computer design. Principles of CAD CAM CAE systems. University of Southern California (Viterbi) USA, 2013
3. Kunwoo Lee. Principles\_of\_CAD\_CAM\_CAE\_systems. Addison-Wesley 2013
4. Tulaev B. Loyihalash jarayonlarini avtomatlashtirish. - T.:TDTU, 2008.
5. Malyux V.N. Vvedenie v sovremennie SAPR:- M.: DMK Press, 2010.- 192 s
6. Osnovi avtomatizirovannogo proektirovaniya. M.: Izdatel`stvo MGTU imeni N.E Baumana. 2002. 333 s.
7. Bol’shakov V. P., Bochkov A. L. B. Osnovi 3D-modelirovaniya. Izuchaem rabotu v AutoCAD, KOMPAS-3D, SolidWorks, Inventor. — SPb.: Piter, 2013. — 304 s.:

Internet saytlari

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
2. [www.cadmaster.ru](http://www.cadmaster.ru)
3. [www.cad.ru](http://www.cad.ru)
4. [www.sapru.ru](http://www.sapru.ru)

### **3. Mavzu: Avtomobillar va traktorlarni avtomatik loyihalash tizimlari ALT ta'minoti turlari. Avtomatlashtirilgan loyihalashning texnik vositalari**

**Reja:**

1. ALT matematik ta'minoti (MT).
2. ALT dasturaviy ta'minoti (DT).
3. ALT informatsion ta'minot.
4. ALT texnikaviy ta'minoti.
5. ALT lingvistik ta'minoti.

#### **Tayanch so'z va iboralar**

ALT matematik ta'minoti, ALTning dasturaviy ta'minoti, ALT informatsion fondi, MBBTning asosiy xususiyati, MBBTning asosiy xususiyati

##### **1. ALT matematik ta'minoti (MT)**

ALT matematik ta'minoti asosini algoritmlar tashkil qiladi; bu algoritmlar bo'yicha ALTning dasturaviy ta'minoti ishlab chiqiladi. ALTda matematik ta'minotning elementlari har xil bo'ladi. Ular ichida invariant elementlar – funktsional modellarni tuzish printsiplari, algebraik va differentsial tenglamalarning sonli yechimi metodlari, ekstremal masalalarni qo'yish, ekstrimumni qidirishlar mavjud. Matematik ta'minotni ishlab chiqish ALT yaratishdagi eng murakkab bosqichdir; ALT unumdoorligi va ishlashining samaradorligi ko'p jihatdan unga bog'liq.

ALT DTsi vazifasi va amalga oshirish usullari bo'yicha ikki qismga bo'linadi:

- 1) matematik metodlar va ular asosida tuzilgan, loyihalash ob'yektlarini tavsiflovchi matematik modellar;
- 2) avtomatlashtirilgan loyihalash texnologiyasining formalashgan bayoni.

Matematik ta'minot birinchi qismini amalga oshirishning usullari va vositalari turli ALTLarda o'ziga xosligi bilan ajralib turadi va loyihalash ob'yektlarining xususiyatlari bog'liq. Matematik ta'minotning ikkinchi qismiga kelsak, avtomatlashtirilgan loyihalash jarayonlarini formalashtirish majmui, alohida loyihalash masalalarini algoritmlash va dasturlashga nisbatan ham murakkab masala ekan. Bu masalani yechishda loyihalashtirish texnologiyasining mantiqi butunligicha, jumladan avtomatlashtirish vositalaridan foydalanish asosida loyihalovchilarining bir-biri bilan muloqoti mantiqi, formalashtirishi kerak. Ushbu turdag'i masalalarini yechishga mos keladigan tizimlar umumiylazariyasining metodlari va holatlari ko'rileyotgan sohada hozircha qo'llanilishini topmadi. Loyihalashni avtomatlashtirish bo'yicha ishlar ko'p holatlarda loyihalash metodologiyasining takomillashmaganligini namoyon qildi va bir vaqtning o'zida loyihalash jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha masalalarini yechish zaruratiga olib keldi. Loyihalash metodologiyasini takomillashtirish va rivojlantirish kontseptsiyasiga turli mualliflarning qarashlari bir narsada bir-biriga o'xshash: loyihalash asosida tizimli yondoshuv yotishi kerak. ALTning matematik ta'minoti loyihalashni avtomatlashtirishning ob'yekti, jarayoni va vositalarini o'zaro

bog‘liqlikda bayon qilishi lozim. Hozirgi paytda ushbu masalani yechish uchun tayinli nazariy baza bo‘limganligi uchun, amalda turli matematik metodlarning murakkab tizimlarini modellash vositalari yagona kompleksga integratsiyalashishi jarayoni bormoqda.

Ushbu jarayon rivojida ikkita istiqbolli yo‘nalishni ajratish mumkin:

- optimal loyihaviy yechimlarni olish metodlarining, jumladan avtomatlashtirilgan loyihalashga yo‘nalan metodlarning rivoji;
- loyihalanayotgan ob’yektlarning turlariga invariant avtomatlashtirilgan loyihalash jarayonlarining o‘zini takomillashtirish va tipiklashtirish.

Davlat standartlarining «SAPR. Tipovie funksionalnie sxemi proektirovaniya izdeliy v usloviyax funksionirovaniya sistem» metodik ko‘rsatmalarni ishlab chiqish loyihalash jarayonlarini avtomatlashtirishni takomillashtirish va tipiklashtirishda ahamiyatli natija bo‘ldi. Unda loyihalashni avtomatlashtirish jarayoni tarkibi va protseduralar ketma-ketligi, loyihaviy hujjalarning mazmuni va shakllari bo‘yicha an’anaviy loyihalash jarayonidan keskin farq qiladi. Shu bilan birga avtomatlashtirilgan loyihalash jarayonida loyihalash ob’yektlariga invariant bo‘lgan ma’lum sondagi protseduralarni ajratish mumkin. Loyihalashning namunaviy jarayonini modellashning matematik apparatini markazlashtirilgan holda ishlab chiqish va bunday modellarni amalga oshiruvchi bazaviy dasturaviy-metodik komplekslarni chiqarish avtomatlashtirilgan loyihalash jarayonlari texnologiyasini takomillashtirish va tipiklashtirishda istiqbolli yo‘nalishdir.

## ***2. ALTning dasturaviy ta’mnoti (DT)***

ALTning dasturaviy ta’mnoti avtomatlashtirilgan loyihalashni bajarish uchun zarur bo‘lgan hamma dasturlar va ekspluatatsion hujjalardan iborat. Dasturaviy ta’mnot umumtizimiylarini va maxsus (amaliy)larga bo‘linadi.

*Umumtizimiylarini* DT texnikaviy vositalari funktsiyalarini tashkil qilish uchun, ya’ni hisoblash jarayonini rejalashtirish va boshqarish, mavjud resurslarni taqsimlash uchun mo‘ljallangan va EHM hamda hisoblash komplekslari (HK)ning operatsion tizimlari ko‘rinishida namoyon bo‘ldi. Umumtizimiylarini DT odatda ko‘p ilovalar uchun yaratiladi va ALT spetsifikasini aks ettirmaydi.

*Maxsus (amaliy) DT* da loyihalash protseduralarini bevosita bajaradigan matematik ta’mnot realizatsiya qilinadi. Maxsus DT odatda amaliy dasturlar paketi (ADI) ko‘rinishida bo‘ldi; ularidan har biri loyihalash jarayonining ma’lum bosqichini yohud turli bosqichlar ichidagi bir turdagisi masalalar guruhini boshqaradi.

ALTni tashkil qilish hamda uni yaratish va undan foydalanish samaradorligiga ta’sir qiluvchi DTning printsipial xususiyatlari. EHM rivojlanishi va takomillashgani sari umumtizimiylarini DTning operatsion tizim (OT) kabi komponentining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Zamonaviy hisoblash tizimi (HT)ning foydalanuvchilar ixtiyoriga berayotgan imkoniyati texnikaviy qurilmalarga nisbatan ko‘proq operatsion tizimlar bilan aniqlanmoqda. OT EHMda turli masalalar yechilishini, ma’lumotlarni uzatish kanallarini va tashqi qurilmalarni masalalar orasida dinamik taqsimlashni, masalalar oqimini rejalashtirishni va ularni belgilangan mezonlarni hisobga olgan

holda yechilishining ketma-ketligini, hisoblash kompleksi xotirasini dinamik taqsimlashni bir vaqtning o‘zida tashkil qiladi. Lekin OT o‘z faoliyati uchun ma’lum resurslarni: protsessor, tashqi va asosiy xotiralarni talab qiladi. OTning imkoniyati qanchalik ko‘p bo‘lsa, unga shunchalik ko‘p resurslar talab qilinadi.

*Bazaviy DT umumtizimiylar DT ning ahamiyatli komponentidir.*

ALT dasturaviy ta’minoti yaratilayotganda bazaviy DT ishlab chiqiladigan ob’yektlar qatoriga kirmaydi. Geometrik va grafik informatsiyalarga ishlov berish, ma’lumotlar bazasini shakllantirish va undan foydalanish uchun mo’ljallangan bazaviy DT bunga misol bo‘la oladi. Quruvchining avtomatlashtirilgan ishchi joyi (QAIJ) mashina grafikasining bazaviy DT yaratildi va tasdiqlandi. Uning asosini grafik kiritish-chiqarish amaliy dasturlar paketi tashkil qiladi; bu paket amaliy dastur bilan va grafikaviy qurilmalar to‘plami orasida funksional interfeysni qurilmalar drayveri va grafikaviy drayverlar yordamida ta’minlaydi. Uning asosida ishlab chiqilgan grafikaviy hujjatlashtirishning amaliy dasturlar paketi esa maxsuslashgan dasturaviy ta’minot tarkibiga kiradi. Grafikaviy hujjatlashtirishning amaliy dasturlar paketi translyatsiya qilish, vizuallashirish, chizmalar namunaviy elementlari (ChNE) bayonini saqlash uchun alohida masalalar to‘plami hamda amaliy dasturlar paketi (ADP)ni yaratish uchun modullar kutubxonasi, kutubxonadan (ChNE) bayonlarini tanlab olish va ularning tasvirini olish to‘plamlaridan iborat.

Standartlashtirilgan loyihalash protseduralarini amalga oshiradigan, tarkibiga shunday bazaviy DT kiritilgan APJlaridan foydalanish ALT dasturaviy ta’minotini yaratish mehnatini sezilarli darajada yengillatadi. Lekin hamma hollarda ham ALTni yaratuvchilar amaliy DTni ishlab chiqishlari lozim bo‘ladi. Hisoblash texnikasi qo‘llaniladigan soha kengayib borishi va loyihalash jarayonlarini avtomatlashtirish masalalari murakkablashib borishi bilan dasturlashning murakkabligi mehnati ortib boradi.

### ***3. ALTning informatsion ta’minoti***

Loyihalovchilar loyihalash jarayonida loyihaviy yechimlarni bevosita ishlab chiqish uchun foydalanishadigan ma’lumotlar ALT informatsion ta’minoti (IT) asosini tashkil qiladi. Ushbu ma’lumotlar turli olib yuruvchi (nositel`lardagi u yoki bu ko‘rinishdagi hujjatlar ko‘rinishida taqdim qilinishi mumkin; bu olib yuruvchilarda materiallar komplektlovchi (butlovchi) buyumlar, namunaviy loyihaviy yechimlar, elementlar parametrлари haqidagi ma’lumot (spravka) tavsifidagi axborotlar hamda oraliq va natijaviy loyihaviy yechimlar, loyihalanayotgan ob’yektlar strukturasi va parametrлари va shu kabilar ko‘rinishidagi joriy ishlamalarning holati haqidagi ma’lumotlar bo‘ladi.

Bunda bir o‘zgarish natijasi bo‘lgan ma’lumotlar boshqa jarayon uchun boshlang‘ich ma’lumot bo‘lishi mumkin. ALTning hamma komponentlari tomonidan foydalaniladigan ma’lumotlar majmui ALT informatsion fondini tashkil qiladi. ALT ITning asosiy funktsiyasi – informatsion fondni boshqarishdir, ya’ni ma’lumotlarga kira olishni hosil qilish, qo‘llab-quvvatlash va tashkil qilishni ta’minlaydi. Shunday qilib ALT IT – informatsion fond va uni boshqarish vositalarining majmuidir.

ALT informatsion fondi tarkibiga quyidagilar kiradi:

– dasturaviy modullar; ular belgi (simvol) ob'yektaviy matn ko'rinishida saqlanadi. ALTning hayotiy sikli davomida bu ma'lumotlar kam o'zgaradi, belgilangan o'lchamlarga ega bo'ladi va informatsion fond yaratilishi bosqichida paydo bo'ladi. Bu ma'lumotlarning iste'molchilari – ALT turli nimtizimlarining monitorlaridir;

– boshlang'ich va natijaviy modullar; ular bir ko'rinishdan ikkinchisiga o'zgarish jarayonida dasturaviy modullarni bajarishda zarur. Loyihalash jarayonida bu ma'lumotlar tez-tez o'zgarib turadi, lekin ularning turi o'zgarmas bo'lib, bu tur mos dasturaviy modul bilan aniqlanadi. Oraliq ma'lumotlarni tashkil qilishda turli turdag'i ma'lumotlarni o'zaro muvofiqlashtirish jarayonida tafovutli vaziyatlar vujudga kelishi mumkin;

– me'yoriy ma'lumotnomaviy loyihaviy hujjatnama (MMLH) o'z ichiga materiallar, sxemalar elementlari, unifikatsiyalashgan uzellar konstruktsiyalar haqidagi so'rov (spravochnim) ma'lumotlarni oladi. Odatda bu ma'lumotlar yaxshi strukturlangan va faktografik ma'lumotlar qatoriga kiritish mumkin. Davlat va tarmoq standartlari, amal qilinadigan materiallar va yo'riqlar, namunaviy loyihaviy yechimlar, qat'iy belgilangan (reglamentlangan) hujjatlar (bo'sh strukturlangan hujjatlari ma'lumotlar) ham MMLHga kiradi;

– loyihalashning borishida dialogni tashkil qilish maqsadida informatsiyani display ekranida tasvirlash imkonini beradigan va kadr shaklini belgilaydigan o'zaro bog'langan ma'lumotlar majmuini ifodalaydigan displaylar ekranlarining mazmuni. Odatda bu ma'lumotlar ALT hayotiy tsikli davomida o'zgarmaydi; qat'iy belgilangan o'lchamga ega bo'ladilar va o'zlarining xarakteristikalari bo'yicha dasturaviy modullar va boshlang'ich ma'lumotlar orasida o'rin egallaydi; berilgan dialog grafi realizatsiyasi jarayonida ALT dialogli tizim tomonidan foydalaniladi;

– joriy loyihaviy informatsiya; loyiha holati va bajarilishining borishini aks ettiradi. Odatda bu informatsiya bo'sh strukturalangan, loyihalash jarayonida tez-tez o'zgaradi va matnli hujjatlar shaklida ifodalanadi. ALT informatsion fondini boshqarish usullarini tanlashda printsiplarni ta'riflash va informatsion fond, ma'lumotlarni strukturalash vositalarini aniqlash, ma'lumotlar massivlarini boshqarish usullarini tanlab olishning ahamiyati katta.

ALT informatsion fondini boshqarishning quyidagi usullarini farqlashadi:

- fayl tizimidan foydalanish;
- kutubxonalarini qurish;
- ma'lumotlar bankidan foydalanish;
- adapterlar informatsion dasturlarini yaratish.

Faylli tizimlardan va kutubxonalarini qurishdan foydalanish hisoblash tizimlarining ITni tashkil qilishda keng tarqalgan, chunki OT vositalari tomonidan qo'llab quvvatlanadi. ALT ilovalarida bu usullar dasturaviy modullarni simvolli va ob'yektli kodlarda saqlashda, loyihalash jarayonini qo'llab-quvvatlashning dialogli stsenariylarini, boshlang'ich ma'lumotlarning yirik massivlarini birlamchi kiritishini, matni hujjatlarni saqlashda qo'llaniladi. Lekin ular so'rovli ma'lumotlarga tez kirishni ta'minlashda, o'zgarib turuvchi ma'lumotlarni saqlashda, joriy loyihaviy

hujjatlarni boshqarishda, zarur bo‘lgan matnli hujjatlarni qidirishda, har xil tilli modullar orasida o‘zaro muloqotni tashkil qilishda ishga kam yaraydi.

Uzluksiz ortib borayotgan informatsiya hajmini umumlashtirishning maqbul bo‘lgan usullarini qidirib topish bo‘yicha olib borilgan ishlar 60-yillar boshida «*Ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimlari*» (MBBT) deb ataluvchi maxsus dasturaviy komplekslar yaratilishiga olib keldi.

MBBTning asosiy xususiyati – nafaqat ma’lumotlarni o‘zini, balki ular strukturasining bayonini ham kiritish va saqlash uchun protseduralarning mavjudligidir. Ularda saqlanayotgan ma’lumotlar bayoni bilan jihozlangan va MBBT boshqaruvi ostida bo‘lgan fayllar «*Ma’lumotlar banki*» deb, so‘ngra esa «*Ma’lumotlar bazasi*» (MB) deb atala boshlandi.

Misol: Samolyotlar harakatining jadvalini va Aeroport ishini tashkil qilish bilan bog‘liq bo‘lgan qator boshqa ma’lumotlarni saqlash talab qilinsin. Buning uchun zamonaviy MBBTlarning biridan foydalanib jadvalning quyidagi bayonini tayyorlash mumkin:

Jadval	Jadvali tuzilsin
(Reys_nomeri	Butun
Hafta_kunlari	Matn (8)
Jo‘nash_punkti	Matn (24)
Uchish_vaqt	Vaqt
Borish_punkti	Matn (24)
Borish_vaqt	Vaqt
Samolyot_turi	Matn (8)
Chipta_narxi	Valyuta)

va u ma’lumotlar bilan birga «Aeroport» MBsiga kiritilsin.

Eng to‘liq variantda MBBT quyidagi tarkibiy qismlarga ega bo‘lishi kerak:


- *foydanuvchi muhiti* – klaviatura yordamida ma’lumotlarni bevosita boshqarish imkonini beradi;
- interpretator sifatida realizatsiya qilingan, ma’lumotlarga ishlov berish amaliy tuzilishini dasturlash uchun *algoritm tili*; interpretator dasturlarni tez tuzish va sozlash imkonini beradi;
- *kompilyator* – tayyor bo‘lgan dasturga mustaqil EXE-fayl shaklida tayyor kommertsiya mahsuloti ko‘rinishini beradi;
- *utilit-dasturlar* – o‘zgarmas, oddiy operatsiyalarni tez dasturlashga xizmat qiladi (hisobotlar, ekranlar, menu va boshqa ilovalar generatorlari).

MBBT – bu foydalanuvchi qobig‘idir. Bunday muhit foydalanuvchining so‘rovlarini tezlik bilan qonistirishga yo‘nalganligi sababli, bu – doim intepretator-tizimdir.

MBBTda dasturlash tilining mavjud bo‘lishi muayyan masala va hatto muayyan foydalanuvchiga mo‘ljallangan ma’lumotlarga ishlov berish murakkab tizimlarini yaratish imkonini beradi. Faqat tilga ega bo‘lib foydalanuvchi qobig‘i bo‘lmagan MBBTlar ham mavjud. Ular faqat dastur tuzuvchilarga mo‘ljallangan; ular kompilyatsiyalovchi turdagи tizimlardir. Bunday paketlar faqat shartli ravishda MBBT deb atalishi mumkin. Odatda ularni kompilyatorlar deb atashadi.

Lekin MBBT orqali ma’lumotlarni almashtirish uchun, u yoki bu ilovalar uchun maxsus yaratilgan fayllardan shunday ma’lumotlarni almashtirishga nisbatan, ko‘proq vaqt talab qilinadi.

Ma’lumotlarni manipulyatsiya qiluvchi tillar yaratilgan; ular relyatsion algebraning hamma operatsiyalarini amalga oshirish imkonini beradi. Ular orasida eng ko‘p tarqalganlari – SQL (Structured Query Language – *so‘rovlarning strukturlangan tili*) va QBE (Quere-By-Example – *namuna bo‘yicha so‘rovlari*). Ikkala til ham juda yuqori darajadagi tilga kiradi; ular yordamida foydalanuvchi ularni olish protsedurasini aniqlamay turib olinishi zarur bo‘lgan ma’lumotlarni ko‘rsatadi.



3.1-rasm. MBBTdan foydalanganda dasturlar va ma’lumotlar orasidagi bog‘lanish

MBBT hamma foydalanuvchilarga jumladan:

- ma'lumotlarning xotirada fizik joylashuvi va ularning bayoni;
- so'ralayotgan ma'lumotlarni qidirib topish mexanizmi;
- bir xil ma'lumotlarni, amaliy dasturlarni ko'p foydalanuvchilar bir vaqting o'zida so'raganda hosil bo'ladigan muammolar;
- ma'lumotlarni noto'g'ri yangilashlar va (yoki) ularga ruxsatsiz kirishdan himoyalashni ta'minlash usullari;
- ma'lumotlar bazasini dolzarb holda ushlab turish va h.k.lar haqida tushunchaga ega bo'limgan yoki ega bo'lishni istamagan foydalanuvchilarga ham, ma'lumotlarga kirish imkonini berish kerak.

MBBT o'zining ushbu funktsiyalaridan asosiyalarini bajarayotganda ma'lumotlarning turli bayonlaridan foydalanishi kerak. Bu bayonnomalar qanday yaratiladi?

Ma'lumotlar bazasi loyihasini predmet (mavzu) sohasini tahlil qilishdan va alohida foydalanuvchilarning (tashkilot xizmatchilari; ma'lumotlar bazasi ular uchun yaratiladi) unga qo'yadigan talablarini aniqlashdan boshlash zarur. Bu jarayon keyinchalik batafsilroq ko'rildi, bu yerda esa quyidagini qayd qilamiz – odatda loyihalash bir odamga (bir guruh odamlarga) – *ma'lumotlar bazasi administratorlariga* (MBA) topshiriladi. U – tashkilot tomonidan maxsus ajratilgan xodim yoki ma'lumotlarga mashina ishlovi berish bilan yaxshi tanish bo'lgan, ma'lumotlar bazasidan kelajakda foydalanadigan odam bo'lishi mumkin.


Ma'lumotlar bazasining mazmuni haqida foydalanuvchilar fikrini jamlash natijasida olingan hamda bo'lajak ilovalarda zarur bo'lib qolishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar haqida o'zining tushunchalarini birlashtirib, MBA dastlab yaratilayotgan ma'lumotlar bazasining umumlashgan noformal bayonini yaratadi. Ma'lumotlar bazasini loyihalash ustida ishlayotgan hamma odamlar uchun tushunarli bo'lgan tabiiy til, matematik formulalar, jadvallar, grafiklar va boshqa vositalardan foydalanib bajarilgan bu bayonnomasi *ma'lumotlarning infologik modeli* deb ataladi (2.2-rasm).

Bunday insonga yo'nalgan model ma'lumotlar saqlanadigan muhitning fizik parametrlaridan batamom mustaqil bo'ladi. Borib-borib bunday muhit EHM emas, balki inson xotirasi bo'lishi mumkin. Shuning uchun real dunyodagi qandaydir o'zgarishlar infologik modeldagi qandaydir o'zgarishni taqozo qilmaguncha, bu model o'zgarmasligi kerak; qandaydir o'zgarishdan murod – model predmet sohasini aks ettirishni davom ettirishi lozim.

3.1-rasmida ko'rsatilgan boshqa modellar kompyuterga yo'nalgan. Ular yordamida MBBT dasturlar va foydalanuvchilarga saqlanayotgan ma'lumotlarga ularning fizik joylashishini o'ylab o'tirmasdan, faqat ularning nomi bilangina kirish imkonini beradi. Zarur bo'lgan ma'lumotlarni MBBT tashqi xotirada saqlash qurilmalarida *ma'lumotlarning fizikaviy modellari* bo'yicha qidirib topadi.

Ko'rsatilgan kirish muayyan MBBT yordamida amalga oshirilgani uchun, modellar ushbu MBBTning *ma'lumotlarni bayon qilish tilida* bayon qilingan bo'lishi kerak. Ma'lumotlarning infologik modeli bo'yicha MBA yaratayotgan bunday bayonnomasi *ma'lumotlarning datalogik modeli* deb ataladi.

**P r e d m e t j a b h a s i**  
 (ma'lumotlar bazasida aks ettilayotgan real dunyoning bir qismi)



3.2-rasm. Ma'lumotlar modellarining darajalari

Uch darajadagi arxitektura (infologik, datalogik va fizik darajalar) *saqlanayotgan ma'lumotlar mustaqilligini* ulardan foydalanayotgan dasturlardan saqlash imkonini beradi. Zarurat bo'lganda MBA saqlanayotgan ma'lumotlarni boshqa informatsiya tashuvchilarga ko'chirib yozib berishi va (yoki) ularning fizikaviy strukturasini qayta tashkil qilishi (ma'lumotlarning faqat fizikaviy modelini o'zgartirib) mumkin.

Soda tashkil qilinganligi, mohiyatlar orasida oldindan belgilangan bog'lanishlarning mavjudligi, ma'lumotlarning fizikaviy modellari bilan o'xshashligi, xotira hajmi cheklangan, sekin ishlaydigan EHMlarda ierarxik MBBTlar unumдорлиги qabul qilsa bo'ladigan darajada bo'lishi imkonini beradi. Lekin, agar ma'lumotlar daraxtsimon strukturali bo'limgan holda ierarxik modelni qurishda va zarur bo'lgan unumдорликка erishishda talay qiyinchiliklar tug'ilardi.

Paradox (Borland firmasining dasturaviy mahsuloti) – ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari bozorida tan olingan lider. Oxirgi besh yil davomida (3,0

versiyasidan boshlab) Paradox mutaxassislar tomonidan personal kompyuterlar uchun eng yaxshi relyatsion MBBT deb tan olinmoqda.

Paradoxning ko‘p xususiyatlari orasida juda soddaligi va shaffofligining ma’lumotlarni boshqarishning funktional tugal tizimining ulkan imkoniyatlari unikal hamohang ekanligini ajratishadi («paradoks» ham ana shunda). Bunday paradoxsli birikma natijasida baquvvat MBBT nafaqat professional dasturchiga, balki dasturlash yoki kompyuterda informatsiyaga ishlov berish haqida tushunchaga ega bo‘lmagan foydalanuvchiga ham bo‘ysunadi.

Tarmoqli modellar hamda kam resursli EHMLar yaratilar edi. Ular – «to‘plamlar» – deb nomlangan ikki darajali daraxtlardan tarkib topgan yetarli darajada murakkab strukturalardir. «To‘plamlar» «yozuv-bog‘lamlar» yordamida birikib zanjirlar hosil qiladi. Tarmoqli modellar ishlanganda MBBT unumdotligini oshirish imkonini beradigan ko‘p «kichik ayyorliklar» o‘ylab chiqilgan edi; lekin ular MBBTni sezilarli darajada murakkablashtirgan edi. Amaliy dasturchi ko‘p atamalarni bilishi va MBBTning bir nechta ichki tillarini o‘rganishi, turli nusxalar, to‘plamlar, yozuvlar va h.k. orasida navigatsiya uchun ma’lumotlar bazasini mantiqiy strukturasi ni ikir-chikirigacha ko‘z oldiga keltirishi lozim. UNIX operatsion tizimini ishlovchilardan biri: «Tarmoqli baza – ma’lumotlarni yo‘qotishning eng ishonchli usuli» degan.

Ierarxik va tarmoqli MBBTdan amalda foydalanishdagi qiyinchiliklar ma’lumotlarni ifodalashning boshqa usullarini qidirishga majbur qildi. 60-yillar oxirida inventirlangan fayllar asosidagi MBBTlar paydo bo‘ldi; ular tashkil qilishning osonligi va ma’lumotlarni manipulyatsiya qilishning juda qulay ishli mavjudligi bilan farqlanadi.

Lekin bunday MBBTlarda ma’lumotlarni saqlash, ma’lumotlar orasidagi bog‘lanishlar miqdori, yozuv uzunligi va uning maydoni miqdori uchun fayllar miqdori cheklangan.

Modullararo interfeysi tashkil qilish muammosi adapterlarning informatsion dasturlarni yaratishiga sabab bo‘ldi; bu ixtisoslashgan (maxsus) tizimlar va dasturaviy texnologiya ishlab chiqilishiga olib keldi. Tayyor modullardan yirik dasturaviy komplekslarni tuzishga yo‘nalgan tizimlar bularga kiradi. Bu tizimda oraliq ma’lumotlar yagona protsessor va ixtisoslashgan modellararo informatsion dastur-adapterlar yordamida unifikatsiyalanadi; dastur – adapterlar quyidagi funktsiyalarni amalga oshiradi;

- 1) har bir alohida modul uchun boshlang‘ich ma’lumotlar mavjudligini nazorat qilish;
- 2) yetishmaydigan boshlang‘ich ma’lumotlarni berish;
- 3) ma’lumotlar turlari, strukturasi va ketma-ketligininng chaqirilayotgan modulda qabul qilingan ma’lumotlarning o‘xhash xarakteristikalariga muvofiqligini tekshirish;
- 4) turlar muvofiq bo‘lmagan holda ma’lumotlarni qaytadan tashkil qilish;
- 5) almashinish turiga mos ravishda chaqirilayotgan modulga ma’lumotlar uzatilishini ta’minlash;

- 6) modulni dasturlash tili belgilaydigan muhitni tashkil qilish;
- 7) natijalarni tekshirish;
- 8) oraliq natijalarni saqlash uchun qabul qilingan ko‘rinishga ma’lumotlarning qaytadan o‘zgartirilishini bajarish;
- 9) modul ishi natijalarini keyinchalik foydalanish uchun saqlash.

Dasturlari katta miqdorda kiruvchi, oraliq va natijaviy o‘zgaruvchilar bilan ishlaydigan yirik ALTlarda almashish jabhasini qandaydir ma’lumotlar banki ko‘rinishida tashkil qilish qulay.

Bu adapter bajaradigan funktsiyalarning bir qismini MBBTga yuklash imkonini beradi; natijada ALT informatsion va dasturaviy ta’mnotinini ishlab chiqishga sarflanadigan vaqt qisqaradi.

Shunday qilib adapter dasturaviy modullar orasida informatsion o‘zaro ta’sirni tashkil qilish bo‘yicha operatsiyalar majmuini bajaradi.

#### ***4. ALTning texnikaviy ta’mnoti***

ALTning texnikaviy ta’mnoti – avtomatlashtirilgan loyihalashni bajarish uchun mo‘ljallangan o‘zaro bog‘langan va o‘zaro ta’sir qiluvchi texnikaviy vositalar majmuidir.

ALTning istalgan hisoblash komplektlari quyidagilarni yetarli miqdorda o‘z ichiga olishi kerak: informatsiyani kiritish va chiqarish periferiya qurilmalari, grafik klanshetali va elektron peroli grafikli va alfavitli-raqamlı displeylar (GD va ARD), har xil formatli yuqori aniqli rulonli va planshetali grafquruvchilar, grafik informatsiyani kodlovchilar, skanerlar, printerlar, magnitli disklarda to‘plovchi (nakopitel)lar (MDT), lazerli disklarda to‘plovchilar, 200...500 Gbayt hajmlı «Vinchester» tipidagi disklardagi to‘plovchilar (2003 yilgi holat), funktsional klaviaturalar, informatsiyani mikrofilm va mikrofishlarga chiqaruvchi qurilmalar, yuqori darajadagi EHM bilan bog‘lanish qurilmalari.

#### ***5. ALTning lingvistik ta’mnoti***

ALT lingvistik ta’mnoti asosini maxsus til vositalari (loyihalash tillari) tashkil qiladi; ular avtomatlashtirilgan loyihalash protseduralarini va loyihaviy yechimlarni bayon qilish uchun mo‘ljallangan. Lingvistik ta’mnotning asosiy qismi – insonning EHM bilan muloqot qilish tillari. Loyihalashning muammoli-yo‘nalgan tillari (MYT) loyihalashning algoritmik tillariga (*Visual Basic, Visual C++, Delphi, Java, Visual Fox Pro* va sh.k.) o‘xshash. Ba’zi masalani yechish topshirig‘i asosan fizikaviy va funktsional mazmundagi original atamalarni o‘z ichiga oladi. Masalaning fizikaviy va funktsional bayonidani EHM uchun dasturlarga o‘tish so‘ngra translyator yordamida avtomatik ravishda amalga oshadi. Boshqa hollarda masalan, muhandislik tipidagi masalalarni yechishda, DT o‘zida hisobiy matematik masalalarni yechish uchun yuqori darajali algoritmik til vositalarini va geometrik ob’yektlarni modellashning maxsus til vositalarini birlashtiradi. Yuqori darajali algoritmik til translyatori zarur bo‘lgan maxsus dasturlar bilan to‘ldiriladi.

DTlar tillar deb nomlansa ham, amalda lingvistik va dasturaviy vositalar kompleksini ifoda etadi. Ular quyidagi vositalarni o‘z ichiga olishi kerak: MYT terminal simvollarining to‘plami; MYTdan interpretatsiya qiluvchi; sintaksistik tahlil vositalari; direktivalarni paketlash vositalari; MYT bazaviy funktsiyalarining kutubxonalarini; MBBT bilan bog‘lanish interfeysi.

### **Foydalaniladigan adabiyotlar ro’yxati**

1. Dugan Um. Soild Modeling and Applications. CAD/CAE. Rapid Prototyping/ Springer. United States of America, 2016.
2. Prentice Hall .Computer design. Principles of CAD CAM CAE systems. University of Southern California (Viterbi) USA, 2013
3. Kunwoo Lee. Principles\_of\_CAD\_CAM\_CAE\_systems. Addison-Wesley 2013
4. Tulaev B. Loyihalash jarayonlarini avtomatlashtirish. - T.:TDTU, 2008.
5. Malyux V.N. Vvedenie v sovremennie SAPR:- M.: DMK Press, 2010.- 192 s

**4. Mavzu:** Xozirgi avtomobillar va traktorlarni avtomatik loyihalash tizimlari (CAD/CAM/CAE) ning loyixalashdagi o’rni. AutoCAD va Kompas ALT dasturlari

#### **Reja:**

1. CAD tizimlari va dasturlari
2. CAM tizimlari va dasturlari
3. CAE tizimlari va dasturlari
4. AutoCAD dasturi
5. Kompas dasturi

### **Tayanch so’z va iboralar**

ALT matematik ta’minoti, ALTning dasturaviy ta’minoti, ALT informatsion fondi, MBBTning asosiy xususiyati, MBBTning asosiy xususiyati, Avtomatlashtirilgan loyihalash (CAD), Avtomatlashtirilgan konstruksiyalash (computer-aided engineering – CAE)

1.Zamonaviy korxonalar agar *eng yaxshi sifatli, tannarxi arzonroq bo’lgan*, yangi mahsulotni qisqa vaqt oralig’ida tayyorlab chiqarishmasa, ular butun dunyo raqobatiga bardosh bera olmaydilar. Shu sababli ular loyihalash va ishlab chiqarish masalalarini avtomatlashtirish va bir-biriga bog’lashda grafik interfeysning ulkan imkoniyatlaridan foydalanishga intilishmoqda. Bunda yangilikni va mahsulotni ishlab chiqarish vaqtini qisqaradi, tannarxi arzonlashadi. Bu maqsadda *avtomatlashtirilgan loyihalash*

(computer-aided design – CAD), avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish (computer-aided manufacturing – CAM) va (chizmalarни) avtomatlashtirilgan ishlab chiqish yoki konstruksiyalash (computer-aided engineering – CAE) texnologiyalaridan foydalaniлади.

*2. Avtomatlashtirilgan loyihalash (CAD)* – bu loyihalarni yaratish, o`zgartirish, tahlil qilish va optimallashtirishni osonlashtirish uchun kompyuter tizimlaridan foydalanishga asoslangan texnologiyadir. Demak, kompyuter grafikasi bilan ishlovchi istalgan dastur, muhandislik hisoblarida foydalaniladigan istalgan ilova kabi, avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlariga taalluqli bo`ladi. Boshqacha aytgagnda, CADning ko`p vositalari shakllar bilan ishlash uchun mo`ljallangan geometrik dasturlardan, to tahlil qilish va optimallashtirish uchun ixtisoslashgan ilovalargacha yoyilgan. CADning eng asosiy vazifasi – bu konstruksiya (mexanizm detallari, arxitektura elementlari, elektron sxemalar, binolar planlari va sh.k.)ning geometriyasini aniqlashdir, chunki geometriya mahsulot hayotiy siklining hamma bo`lajak bosqichlarini belgilaydi. Odatda, bu maqsad uchun, chizmalarni ishlab chiqish tizimlari va geometrik modellashdan foydalaniladi. Shu sababli bu tizimlar odatda avtomatlashtirilgan loyihalash tizimi deb hisoblanadi. Bundan tashqari, bu tizimlarda aniqlangan geometriya CAE va CAM tizimlarida keyinchalik bajariladigan operatsiyalar uchun asos sifatida foydalanishi mumkin. Bu – CADning eng ahamiyatli afzalliklaridan biridir, vaqt ni tejash hamda hisoblashda har gal konstruksiyani nuldan boshlab aniqlash zarurati bilan bog`liq bo`lgan xatoliklar sonini qisqartirish imkonini beradi. Demak, shuni ta`kidlash mumkinki, ishchi chizmalarni avtomatlashtirilgan ishlab chiqish tizimlari va geometrik modellash tizimlari – avtomatlashtirilgan loyihalashning eng ahamiyatli komponentlaridir.

*3. Avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish (CAM)* – bu korxonaning ishlab chiqarish resurslari bilan bevosita yoki bilvosita interfeys orqali ishlab chiqarish operatsiyalarini rejalash, boshqarish asoslangan texnologiyadir. Sonli-raqamli dasturaviy boshqarish (*numerical control – NT*) – ishlab chiqarishni avtomatlashtirishga bo`lgan eng yyetuk yondoshuvlardan biridir. Sonli-raqamli boshqaruv – bu stanokni boshqarish uchun dasturlashtirilgan komandalardan foydalanishdir; stanok jilvirlash, kesish, frezerlash, shtamplash, parmalash va boshqa usullar bilan xomakini tayyor detalga aylantiradi. Hozirgi paytda kompyuterlar *CAD* ma`lumotlar bazasidagi buyumlarning geometrik parametrlari va operator taqdim etayotgan qo`sishimcha ma`lumotlar asosida sonli-raqamli dasturaviy boshqariluvchi stanoklar uchun katta dasturlarni generatsiya qilishga qodir.

Avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlarining yana bir ahamiyatli funksiyasi – robotlarni dasturlashdir, ular sonli-raqamli dasturaviy boshqariluvchi stanoklarga asboblar va ishlov beriladigan detallarni o’rnatib, avtomatlashtirilgan moslanuvchan uchastkalarda ishlashi mumkin. Robotlar o’zlarining xususiy vazifalarini ham bajarishi, masalan, payvandlash, jihozlar va detallarni yig’ishi va ularni sex bo’ylab tashishi mumkin.

Jarayonlarni rejalashtirish ham asta-sekin avtomatlashtirilmoqda. Jarayonlar rejasi qurilmani tayyorlash bo'yicha operatsiyalar ketma-ketligini boshidan oxirigacha hamma zarur bo'lgan jihozlarda aniqlash mumkin. Jarayonlarni rejalashtirishni to'liq

avtomatlashtirish amalda mukin bo`lmasa ham, muayyan detalga ishlov berish rejasi, agar shunga o`xhash detallarga ishlov berish rejasi bor bo`lsa, avtomatlashtirilishi mumkin. Buning uchun guruhash texnologiyasi ishlab chiqilgan, u o`xhash detallarni oilalarga birlashtirish imkonini beradi. Agar detallar umumiy ishlov berish xususiyatlari (o`rindiqlar, pazlar, faskalar, teshiklar va h.k.)ga ega bo`lsa, ular o`xhash hisoblanadi. Detallar o`xshashligini bilib olish uchun *CAD* ma`lumotlar bazasi shunday xususiyatlar haqida ma`lumotlarga ega bo`lishi kerak. Bu vazifa obyektga yo`nalgan modellash yoki elementlarni tanish yordamida amalga oshiriladi.

**Avtomatlashtirilgan konstruksiyalash** (*computer-aided engineering – CAE*) – bu *CAD* geometriyasini tahlil qilish, modellash va mahsulot konstruksiyasini takomillashtirish uchun uning xususiyatlarini o`rganish uchun kompyuter tizimidan foydalanishdir. *CAE* vositalari tahlilning har xil variantlarini bajarishi mumkin. Masalan, kinematik hisoblash dasturlarini harakat trayektoriyalarini va mexanizmlardagi zvenolar tezliklarini aniqlashga qodir. Dinamik tahlil dasturlari avtobillar kabi murakkab tarkibli qurilmalarda yuklanish va siljish (deformasiya)larni aniqlash uchun qo`llanilishi mumkin. Mantiqni tahlil qiluvchi va sinxronizatsiyalovchi dasturlar murakkab elektron zanjirlar ishini imitatsiya qiladi.

Konstruksiyalarni optimizatsiyalashga mo`ljallangan ko`p dasturaviy vositalar mavjud. Optimizatsiyalashga mo`ljallangan vositalar *CAE* sinfiga kiritilishi mumkin bo`lsa ham, odatda ularni alohida ko`rib chiqishadi. Optimizatsiyalash va tahlilni birlashtirish yo`li bilan konstruksiya shaklini avtomatlashtirilgan tarzda aniqlash bo`yicha tadqiqotlar olib borilmoqda [13]. Bu yondoshuvlarda konstruksiyaning boshlang`ich shakli sodda ko`rinishda taklif qilinadi, masalan, zichligi har xil bo`lgan katta bo`lmagan elementlardan tarkib topgan ikki o`lchamli to`g`ri to`rt burchakli obyekt kabi; bunday shakl kuchlanishlarga qo`yilgan cheklashlarni hisobga olgan holda muayyan maqsadga erishish imkonini beradi. Maqsad – ko`pincha og`irlikni minimallashtirish bo`ladi. Zichlikning optimal qiymatlari aniqlangandan so`ng, obyektning optimal shakli hisoblanadi. Bunga zichlik qiymati kichik bo`lgan elementlarni tashlab yuborish bilan erishiladi.

Tahlil va optimallashtirish metodlarining ajoyib xususiyati shundaki, ular konstruktorga tayyor mahsulot sifat (xossa)larini oldindan ko`rabilish va real prototiplarni yaratish va testdan o`tkazguncha mumkin bo`lgan xatoliklarni namoyon qilish vash u bilan ma`lum xarajatlarga yo`l qo`ymaslik imkonini beradi.


Demak, *CAD*, *CAM* va *CAE* texnologiyalarining vazifikasi – mahsulot hayotiy siklining muayyan bosqichlarini avtomatlashtirish va samaradorligini oshirishdir.

AutoCAD grafik tizimi Auto-Desk (AQSh) firmasi tomonidan ishlab chiqilgan, muhandislik-grafik ishlarini avtomatlashtirish uchun mo`ljallangan, shu sababli kompyuter bilan birga «elektron kulman»ni hosil qiladi.

- AutoCADning birinchi versiyasi paydo bo`lgandan beri u quvvatli muhitga aylandi, usiz zamонавиј саноат корхонаси юки конструкторлик бурусинга ишни тасаввур qilib bo`lmaydi. AutoCAD grafik tizimi Windows XP operatsion tizimiga оғнатилади.

## 5/ AutoCAD 2007 REDAKTORINI ISHGA TUSHIRISH VA UNING DARCHASI

Grafik tizim AutoCAD 2007 Windows XP operatsion tizimda ishga tushiriladi. Yuklangandan keyin ekranda 39-rasmida tasvirlangan ishchi makon (prostranstvo)ni tanlash dialog darchasi paydo bo‘ladi.



4.1-rasm. Ishchi makonni tanlash darchasi


Unda *AutoCAD Classic (Klassik stil`/Klassik stil)* yoki *3D Modeling (3D modelirovanie/3D modellash)* interfeyslarni tanlash mumkin. Dastlab *AutoCAD Classic* punktni tanlaymiz, chunki biz ikki o‘lchamli makonni o‘zlashtirishdan boshlaymiz.

So‘ngra darcha paydo bo‘ladi, uning yordamida dasturning yangi funksiyalari bilan tanishish mumkin. Unda *Yes (Da/Ha)*, *Maybe later (Pozje/Keyin)* yoki *No, Don’t me this again (Bol`she ne pokazivat` eto okno/Bu darcha boshqa ko‘rsatilmasin)* ulab-uzgichlaridan birini tanlang va *OK* knopkasini shiqillating.

Keyin *Startup (Nachalo raboti/Ish boshlanishi)* dialog darchasi paydo bo‘ladi. Bu dialog darchasining paydo bo‘lishi yoki bo‘lmasligi *Tools => Options (Servis => Nastroyki/Servis => O‘rnatish)* komandasini bilan boshqariladi, *Startup* ro‘yxatidagi *General Options (Obhie parametri/Umumiy parametrlar)* bo‘limning *System (Sistema/Tizim)* ilovasida *Show startup dialog box (Pokazivat` dialogovoe okno nachalo raboti/Ish boshlanishi dialog darchasini ko‘rsatish)*ni tanlaymiz.

Yana shuni qayd qilish kerakki, indamaslik (po umolchaniyu) bo‘yicha ishchi zona qora rangga ega bo‘ladi. Qulay bo‘lishligi uchun ishchi zonaning rangini qoradan oqqa (yoki sizga yoqqan boshqa rangga) almashtirish tavsiya etiladi.

*Display (Ekran)* ilovasidagi *Tools => Options (Servis => O‘rnatish)* komandasini tanlang va *Colors (Sveta/Ranglar)* knopkasida shiqillating. Keyin *Drawing Window Color (Okno svetov cherteja/Chizma ranglari darchasi)* ochiladi – 40-rasm. Ushbu dialog darchasida ekranning har bir elementi uchun rang o‘rnatish mumkin.



4.2-rasm. Ishchi zona rangini tanlash darchasi


Indamaslik bo'yicha ikki o'lchamli ishchi zonaning rangi ro'yxatda birinchi bo'lib topiladi, shuning uchun *Color (Rang)* maydonida *White (Beliy/Oq)* qatorni tanlang. *Apply&Close (Применит и закр.)/Qo'llang va berkiting* knopkasida shiqillatib dialog darchasini yoping.

41-rasmda AutoCAD 2007 ning ishga tushirilgan ishchi darchasi ko'rsatilgan. Bunda sarlavha qatorida (ekranning chap yuqori burchagida) bo'lajak chizmaga avtomatik tarzda berilgan fayl nomi – Drawing 1 paydo bo'ladi.

Ekranda to'rtta funksional zonani ajratish mumkin:

- *Ishchi grafik zona* – bu ekranning o'rtasida joylashgan asosiy jabha, u yerda chizma bajariladi. Zonaning chap pastdagi burchagida foydalanuvchi foydalanuvchi koordinatalar tizimining piktogrammasi joylashadi. Strelkalar yo'nalishi o'qlarning musbat yo'nalishiga mos keladi.

- *Tizimiyl menu va instrumentlar paneli*. Eng yuqorida sarlavha qatori, uning ostida esa – AutoCAD tizimiyl menyusining qatori joylashadi. Pastroqda instrumentlar panellari egallagan ikkita qator joylashadi. Ishchi zonadan chap tarafda instrumentlarning «suzuvchi» panellari **Draw** (Risovanie/Chizish), **Modify** (Redaktirovanie/Tahrir qilish), o'ngda esa – **Dimension** (Razmeri/ O'lchamlar) joylashadi. Ularni ekranning istalgan joyiga siljitim mumkin. AutoCAD yana boshqa ko'p instrumentlar panellari bor, ular zarurat bo'yicha chaqiriladi.



4.3-rasm. AutoCAD 2007 ning ishchi darchasi

- Komanda qatori.** Ishchi grafik zona ostida komanda qatori joylashadi. AutoCADning istalgan komandasini, uning nomini komanda qatorida terib, ishga tushirish mumkin. Agar komanda instrumentlar paneli pictogrammasi yoki menu punkti vositasida ishga tushirilgan bo'lsa, komanda qatorida tizimning mos komandasiga reaksiyasi aks ettiriladi. Bundan tashqari klaviaturadan kiritiladigan hamma narsa o'sha zahoti komanda qatorida aks ettiriladi. Agar bilmasdan boshqa komanda chaqirilgan va joriy komandani bekor qilish zarur bo'lsa, klaviaturadagi **Esc** klaviaturasini bosish mumkin.

- Holat qatori.** Holat qatorida xoch(sichqon ko'rsatkichi)ning joriy koordinatalari aks ettiriladi.

Bazaviy xarakteristikalarini yaxshiroq tushunish uchun kesma ko'rinishidagi *grafik primitivni* keltirilgan instruksiya bo'yicha chizishga harakat qilib ko'ramiz.

AutoCAD komandalarini chaqirish menu yoki instrumentlar panellaridagi pictogrammalar yordamida amalga oshiriladi. AutoCAD 2007 versiyasida tizimiyl menu qatori quyidagi chiqib keluvchi menyularidan tarkib topadi:

- **File** (Fayl/Fayl) – menu fayl (chizma)larni ochish, saqlash, chop qilish, boshqa formatlarga eksport qilish va tizimdan chiqish uchun mo'ljallangan;
- **Edit** (Pravka/Tuzatish) – ishchi zonada chizma kesimlarini tahrir qilish (tuzatish) menyusi;
- **View** (Vid/Tur) – ekranni boshqarish, varaq va model makonlari rejimlarini uzib-ulash, uch o'lchamli modellar uchun ko'rish nuqtasini o'rnatish, tonirovka qilish, display parametrlarini boshqarish menyusi;
- **Insert** (Vstavit'/Kiritib o'rnatish) – boshqa ilovalardan bloklar va obyektlarni kiritib o'rnatish komandasini menyusi;
- **Tools** (Instrumenti/Instrumentlar) – tizimni boshqarish vositalari, chizma parametrlarini bog'lanishlar va foydalanuvchi koordinatalar tizimini o'rnatish menyusi;
- **Draw** (Cherchenie/Chizmachilik) – grafik primitivlar va uch o'lchamli modellarni qurish menyusi;
- **Dimension** (Razmer/O'lcham) – o'lchamlarni berish komandasini menyusi;

- **Modify** (Redaktirovanie/Tahrir qilish) – grafik obyektlarni tahrir qilish menyusi;
- **Window** (Okno/Darcha) – ochilgan chizma(fayl)larni boshqarish va sortirovka qilish menyusi;
- **Help** (Spravka/Ma`lumot) – ma`lumot menyusi.

Yangi chizma ustida ishlashdan oldin ishchi muhitni o‘rnatish lozim, ya`ni chizma ishchi maydoni o‘lchamlarini, o‘lchov birliklarini berish va koordinatalar tizimini o‘rnatish kerak va h.k. Buning uchun AutoCAD 2007 da ishchi muhitni o‘rnatish usta(master)si mavjud, u tizim yuklangan zahoti **u** ochiladi (**Startup**/Nachalo raboti/Ish boshlanishi – darchasi). **Startup** dialog diagrammasining yuqori qismida (1.3-rasm) to‘rtta qator joylashgan:

- **Open a Drawing** (Otkrit` chertej/Chizmani ochish) – chizmaning mavjud faylini ochish;
- **Start from Scratch** (Nachat` s nulya/Nuldan boshlash) – parametrleri indamaslik bo‘yicha AutoCAD tomonidan o‘rnatiladigan yangi chizmani yaratish;
- **Use a Template** (Ispol`zovat` shablon/Shablondan foydalanish) – yangi chizmada ilgari yaratilgan shablonlar parametrlerini o‘rnatish;
- **Use a Wizard** (Ispol`zovat` master/Ustadan foydalanish) – yangi chizma parametrlerini o‘rnatishning qadamba-qadam jarayonini ishga tushirish; bunda o‘rnatishning ikkita varianti: detali – **Advanced Setup** va tezkor – **Quick Setup** bo‘lishi mumkin.

AutoCAD tizimida istalgan grafik primitivni qurish nuqtalar ketma-ketligini berishga asoslangan. Nuqtalar koordinatalari absolyut yoki nisbiy koordinatalar ko‘rinishida kiritilishi mumkin.

Absolyut koordinatalarni kiritish ikki formatda amalga oshiriladi:

- *to‘g‘ri burchakli (dekart) koordinatalari* (X, Y);
- *qutb koordinatalari* (r<A, bu yerda r – radius, A – soat strelkasiga teskari yo‘nalishda graduslarda berilgan burchak).

Nisbiy koordinatalar oxirgi kiritilgan nuqtadan X va Y o‘qlari bo‘ylab siljishni beradi. Nisbiy koordinatalarning kiritilishi absolyut koordinatalarni kiritishga o‘xshash bajariladi, lekin ularning oldida @ belgisi qo‘yiladi (@dx,dy – to‘g‘ri burchakli tizim, @r<A – esa qutb tizimi uchun). Sichqon cursorining joriy koordinatalari koordinatalar panelida holatlar qatorida (ekranning chapdagisi pastki burchagi) aks ettiriladi.

